

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM  
VAZIRLIGI  
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI  
MAGISTRATURA BO‘LIMI**

*Qo‘lyozma huquqida*  
*UDK- 94(54):327.8(4/5)/15-18/*

**XODJAYEVA FOTIMA NABIXONOVNA**

**«HINDISTONDA BOBURIY HUKMDORLAR DIPLOMATIYASI  
(XVI-XIX ASRLAR)»**

**Mutaxassislik: 5A120302- Tarix (yo‘nalishlar va mamlakatlar bo‘yicha)**

Magistr akademik darajasini olishi uchun yozilgan

**DISSERTATSIYASI**

**Ilmiy rahbar:** \_\_\_\_\_ Sh.A.Hayitov  
(imzo) t.f.d., professor

**BUXORO – 2019**

Dissertatsiya Buxoro davlat universiteti

Tarix va madaniy meros fakulteti

Jahon tarixi kafedrasida bajarilgan

Ilmiy rahbar:

\_\_\_\_\_

(imzo)

\_\_\_\_\_

(Ilmiydarajasivaunvoni, ism-sharifi)

Rasmiy opponent:

\_\_\_\_\_

(imzo)

\_\_\_\_\_

(Ilmiydarajasivaunvoni, ism-sharifi)

\_\_\_\_\_

(imzo)

\_\_\_\_\_

(Ilmiydarajasivaunvoni, ism-sharifi)

Kafedra mudiri:

\_\_\_\_\_

(imzo)

\_\_\_\_\_

(Ilmiydarajasivaunvoni, ism-sharifi)

Magistratura bo'limi boshlig'i:

\_\_\_\_\_

(imzo)

\_\_\_\_\_

(Ilmiydarajasivaunvoni, ism-sharifi)

Magistrant

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM  
VAZIRLIGI  
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**Fakultet:** Tarix va madaniy meros

**Kafedra:** Jahon tarixi

**O‘quv yili:** 2018-2019

**Magistratura talabasi:** Xodjayeva F. N.

**Ilmiy rahbar:** t.f.d., professor Hayitov Sh.A.

**Mutaxassisligi:** 5A120302 – Tarix (yo‘nalishlar va mamlakatlar bo‘yicha)

**HINDISTONDA BOBURIY HUKMDORLAR DIPLOMATIYASI (XVI-XIX  
ASRLAR) MAGISTRLIK DISSERTATSIYASI ANNOTATSIYASI**

**Magistrlik dissertatsiyasi annotatsiyasi tayanch (eng muhim) so‘zlar:** diplomatiya, o‘rta asr diplomatiyasi, Zahiriddin Muhammad Bobur diplomatiyasi, elchi, savdogar, shayx, ulamo, elchilik asoslari, Akbarshoh siyosati, tashqi siyosat, Sharq diplomatiyasi, Markaziy Hindiston, Shimoliy Hindiston, diplomatik vakil, sovg‘a, savdo-sotiq, O‘rta Osiyo, Movarounnahr, Eron, xalqaro aloqalar, malika, podishoh, amaldor, davlat boshqaruvi, siyosiy inqiroz.

**Tadqiqot obyektlari:** Boburiy hukmdorlar diplomatiyasining asoslari, tarixiy ildizlari, Sharq va G‘arb mamlakatlari bilan siyosiy, iqtisodiy, madaniy aloqalar tarixiy tajribasi va saboqlari. Uch yarim asrlik tarixiy bosqichda diplomatik aloqalardagi yutuq va foydalanilmagan imkoniyatlar tahlili.

**Tadqiqotning maqsadi:** Boburiylar davlatining tashkil topishi, diplomatiyasi, tashqi siyosat konsepsiyasi asoslari, qo‘shni va uzoq xorijiy davlatlar bilan diplomatik aloqalar jarayoni o‘zaro munosabatlarning tarixiy tajribalari va natijasini tadqiq qilish maqsadi ko‘zlandi.

**Tadqiqot usuli:** Muammoga istiqlol mafkurasi, huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati barpo etish tamoyili hamda umuminsoniy, milliy qadriyatlar uyg‘unligi nuqtai-nazaridan yondashildi. Shuningdek, tarixiy izlanishlar olib borishning qiyosiy-analitik tahlil, dialektik yondashuv, obyektivlik, tarixiylik, sinergetik, germenevtik metodlari asosida ish ko‘rildi.

**Olingan natijalar va ularning yangiligi:** Dissertatsiyada Boburiylar davlati diplomatsiyasi masalalarining asoslari, tarixiy ildizlari tahlil qilinib, tegishli ilmiy xulosalarga kelindi. Boburiylar Hindistonda barpo etgan davlat qurilishining shakllanishi va tashqi siyosat yo'nalishlarining ishlab chiqilishi, jamiyatni barqarorlashtirishdagi faoliyati aniq dalil va raqamlar asosida ochib berildi. Shuningdek, hozirgi bilan diplomatik aloqalar spiralsimon kechganligi, bu jarayon bosqichma-bosqich amalga oshirilganligi, har bir bosqichdagi o'ziga xosliklar tahlil qilindi. Boburiylar diplomatsiyasidagi yutuq va kamchiliklarga xolisona baho berilganligi ham dissertatsiyailmiy-nazariy yangiligi hisoblanadi.

**Amaliy ahamiyati:** Dissertatsiya natijasida olingan ilmiy xulosalar O'zbekiston, Markaziy Osiyo va Jahon tarixi fanlarini o'rganishni materiallar bilan boyitadi, shuningdek, Boburiylar tarixi hamda ushbu sulola davri tashqi siyosati masalalarida yaxlit tasavvurga ega bo'lishda amaliy yordam beradi.

**Tadqiq qilish darajasi va iqtisodiy samaradorligi:** Dissertatsiya materiallari asosida 1 ta maqola va 1 ta tezislar chop etildi. Tadqiqot yuzasidan Buxoro davlat universitetida o'tkazilgan an'anaviy ilmiy-amaliy anjumanlarda (2017-2018, 2018-2019) ma'ruzalar qilindi. Shuningdek, Buxoro shahar 10-sonli o'rta maktabda o'quvchilar bilan "Bobur va boburiylar izidan...", "Bobur va uning avlodlari", "Boburiy hukmdorlar diplomatiyasi", "Akbarshoh va Abdullaxon II" mavzularida suhbat hamda muloqot kechalari o'tkazildi. Tadqiqotdagi materiallar targ'iboti Buxoro davlat universiteti "Tarix va madaniy meros" fakultetida "Tarix" ixtisosligi II kurs talabalariga O'rta asrlar tarixi fanidan seminar mashg'ulotlari o'tish orqali ham amalga oshirildi.

**Qo'llanilishi (foydalanish sohasi):** Tadqiqot materiallari O'zbekiston va Jahon tarixiga oid darslik hamda o'quv qo'llanmalar yozishda qo'l keladi. Ayniqsa, Hindistonning XVI-XIX asr birinchi yarmi tarixidan kengroq xabardor bo'lishda ishdan ko'plab ma'lumotlar olishi mumkin. Dissertatsiyadagi dalil va raqamlardan foydalanib o'quvchi, talaba hamda magistr'larga maxsus seminar, ko'chma mashg'ulotlar va maxsus kurslar o'tishi mumkin.

**МИНИСТЕРСТВО ВЫСШЕГО И СРЕДНЕГО СПЕЦИАЛЬНОГО  
ОБРАЗОВАНИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН  
БУХАРСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ**

**Факультет:** История и культурное наследие

**Кафедра:** Мировая история

**Учебный год:** 2018-2019

**Магистрант:** Ходжаева Ф.Н.

**Научный руководитель:** Хайитов Ш. А.

**Специальность:** 5A120302-история (по направлениям и странам)

**Аннотация магистерской диссертации базовые (наиболее важные) слова:** дипломатия, средневековая дипломатия, Дипломатия З.М. Бабура, посол, купец, Шейх, Горан, основы посольства, политика Акбаршоха , внешняя политика, Восточная дипломатия, Центральная Индия, Северная Индия, дипломатический представитель, подарок, торговля, Средняя Азия, Мавераннахр, Иран, международные отношения, принцесса, падишах, чиновник, государственное управление, политический кризис.

**Объекты исследования:** Основы дипломатии Бабурских правителей, исторический опыт и уроки политических, экономических, культурных связей со странами Востока и Запада. Анализ достижений и неиспользованных возможностей дипломатических отношений на историческом этапе трех с половиной веков.

**Цель исследования:** Создание государства Бабуридов, его дипломатия, основы концепции внешней политики, процесс дипломатических отношений с соседними и дальними зарубежными странами преследовали цель изучения исторического опыта и результата взаимодействия.

**Метод исследования:** К проблеме подходили с точки зрения идеологии независимости, принципа построения правового демократического государства и гражданского общества, а также гармонии общечеловеческих и национальных ценностей. Также была построена работа по сравнительно-аналитическому анализу исторических исследований, диалектическому

подходу, объективности, историчности, синергетике, герменевтическим методам.

**Полученные результаты и их новизна:** В диссертации были проанализированы основы, исторические корни вопросов дипломатии государства Бабуридов и сделаны соответствующие научные выводы. На основе четких доказательств и цифр была раскрыта деятельность Бабуридов по формированию государственного строительства в Индии и разработке внешнеполитических направлений, стабилизации общества. Кроме того, были проанализированы дипломатические отношения, поэтапное осуществление этого процесса, особенности каждого этапа. Объективная оценка достижений и недостатков в дипломатии Бабуридов также является новшеством диссертации.

**Практическое значение:** Научные выводы, полученные в результате диссертации, обогащают материалы по изучению наук Узбекистана, Центральной Азии и мировой истории, а также оказывают практическую помощь в формировании целостного представления в вопросах истории Бабуридов и внешней политики данной династии.

**Степень реализации и экономическая эффективность:** На основе диссертационных материалов опубликованы 2 статьи и 1 тезис. Доклады по исследованию были проведены на традиционных научно-практических конференциях в Бухарском государственном университете (2017-2018, 2018-2019). А также были проведены беседы с учениками средней школы № 10 города Бухары на темы: “ по стопам Бабура и бабуридов”, “Бабур и его потомки”, “дипломатия Бабурских правителей”, “Акбаршах и Абдуллахон II”. Продвижение материалов исследования проводилось на факультете “ История и культурное наследие ” Бухарского государственного университета, на семинарских занятиях по предмету “История Средних веков” для студентов 2 курса, специальности "История".

**Применение (область использования):** Исследовательские материалы можно использовать при написании учебников и учебных пособий по

предмету “Мировая история” и “История Узбекистана”. В работе можно получить много информации о истории Индии первой половины XVI-XIX века в более широком понимании. Используя данные и цифры диссертации, обучающиеся, студенты и магистранты могут пройти специальные семинары, выездные занятия и специальные курсы.

**MINISTRY OF HIGHER AND SECONDARY SPECIALIZED  
EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN  
BUKHARA STATE UNIVERSITY**

**Faculty:** History and Cultural Heritage

**Department:** World History

**Academic Year:** 2018-2019

**Master:** Khodjaeva F.N.

**Research Advisor:** Hayitov Sh.A.

**Specialization:** 5A120302 – History (Directions and Countries)

**Abstract master's thesis basic (most important) words:** diplomacy, medieval diplomacy, diplomacy Z.M. Babur, ambassador, merchant, Sheikh, Goran, embassy basics, Akbarshoh policy, foreign policy, Eastern diplomacy, Central India, Northern India, diplomatic representative, gift, trade, Central Asia, Maverannahr, Iran, international relations, princess, padishah, official , public administration, political crisis.

**Objects of study:** Basics of Babur ruler's diplomacy, historical experience and lessons of political, economic, cultural relations with the countries of the East and the West. Analysis of the achievements and unused opportunities of diplomatic relations at the historical stage of three and a half centuries.

**The purpose of the research:** The creation of the Baburid state, its diplomacy, the basics of the concept of foreign policy, the process of diplomatic relations with neighboring and distant foreign countries were aimed at studying historical experience and the result of interaction.

**Research method:** The problem was approached from the point of view of the ideology of independence, the principle of building a legal democratic state and civil society, as well as the harmony of universal and national values. A work was also constructed on a comparative analytical analysis of historical research, the dialectical approach, objectivity, historicity, synergetic, and hermeneutical methods.

**The results obtained and their novelty:** The thesis analyzed the foundations, historical roots of the issues of diplomacy of the Baburids state and made the



appropriate scientific conclusions. Because of clear evidence and figures, the Baburids' activities on the formation of state building in India and the development of foreign policy directions and the stabilization of society were revealed. In addition, they analyzed diplomatic relations, the phased implementation of this process, and the features of each stage. The objective assessment of achievements and shortcomings in Baburid diplomacy is also a novelty of the dissertation.

**Practical significance:** The scientific conclusions obtained because of the thesis enrich the materials on the study of the sciences of Uzbekistan, Central Asia and world history, and provide practical assistance in forming a holistic view of the history of the Baburids and the foreign policy of this dynasty.

**The degree of implementation and economic efficiency:** Based on the dissertation materials, one articles and one thesis were published. Research reports were held at traditional scientific conferences at Bukhara State University (2017-2018, 2018-2019). There were also conversations with pupils of secondary school No. 10 of the city of Bukhara on the topics: “in the footsteps of Babur and the baburids”, “Babur and his descendants”, “diplomacy of the Babur rulers”, “Akbarshah and Abdullahon II”. The research materials were promoted at the faculty of “History and Cultural Heritage” of Bukhara State University, in seminars on the subject “History of the Middle Ages” for 2nd year students in the specialty “History”.

**Application (field of use):** Research materials can be used when writing textbooks and tutorials on the subject “World History” and “History of Uzbekistan”. In the work, you can get a lot of information about the history of India in the first half of the XVI-XIX century in a broader sense. Using the data and numbers of the thesis, students, undergraduates and undergraduates can take special seminars, field classes and special courses.

## MUNDARIJA:

<b>Kirish</b> .....	11
<b>I BOB. BOBURIYLAR DIPLOMATIYASINING TARIXIY ILDIZLARI VA ASOSLARI</b>	
1.1. Boburiylar davlati haqida umumiy tasnif .....	18
1.2. Boburiylar diplomatiyasidagi vorisiylik an'anasi: Amir Temur va boburiy hukmdorlar.....	24
1.3. Hindistonda boburiylar diplomatiyasi: shakllanish, qoida va tamoyillar.....	33
<b>II BOB. BOBURIY HUKMDORLARNING QO'SHNI DAVLATLAR BILAN O'ZARO ELCHILIK VA DIPLOMATIK ALOQALARI</b>	
2.1. Hindistonda markazlashgan davlat barpo etish uchun kurash.....	42
2.2. Boburiylarning qo'shnilar bilan diplomatik va elchilik munosabatlari.....	48
<b>III BOB. BOBURIYLARNING YEVIROPA DAVLATLARI BILAN MUNOSABATLARI</b>	
3.1. Boburiy hukmdorlar va Yevropa mamlakatlari.....	55
3.2. Boburiylarning hozirgi davrda Hindistondagi avlodlari va O'zbekiston bilan aloqalar .....	60
<b>XULOSA</b> .....	69
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI</b> .....	72
<b>ILOVALAR</b>	

## Kirish

**Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi.** O'zbekiston Respublikasi mustaqilligi yillarida o'tmishda o'tgan tarixiy shaxslar nomini tiklash, o'zbek milliy davlatchilik tarixiy bosqichlarini xolisona va obyektiv o'rganish borasida jahonshumul ahamiyatga molik ishlar amalga oshirildi. Ayniqsa, O'rta Osiyo, Afg'oniston va Hindiston tarixida muhim iz qoldirgan Zahiriddin Muhammad Bobur (1483-1530) va boburiylar sulolasi hukmronligi davri tarixi yuzlab tadqiqotlarga asos bo'ldi va bu yo'nalishda ilmiy izlanishlar hamon davom etmoqda. Ushbu jihatlarni o'rganishda davom etish ma'naviy barkamollik asosi hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov: "Ma'naviyatini tiklash tug'ilib o'sgan yurtida o'zini boshqalardan kam sezmay, boshini baland ko'tarib yurishi uchun insonga albatta, tarixiy xotira kerak"<sup>1</sup> – deb, ta'kidlagan edi.

Boburiylar tarixi, "Boburnoma" kabi bebaho ma'naviy asar hamon xorij olimlari diqqatini o'ziga tortib turganligiga e'tiborni qaratar ekan I.A.Karimov, yapon olimi Koto Bobur asarlarini yapon tiliga tarjima qilib, "Do'stlik" ordeni bilan mukofotlangani, Qohira universiteti (Misr) professori, turkolog Magida Maxluf xonim "Boburnoma"ni arab tiliga tarjima qilganligiga alohida urg'u berib o'tgandi.<sup>2</sup>

Qolaversa, Zahiriddin Muhammad Bobur tavallud topgan Andijon shahrida 1991 yildan buyon "Bobur izidan" xalqaro ilmiy ekspeditsiya va jamg'arma faoliyat ko'rsatib, ushbu ekspeditsiyani tabiatshunos olim, professor Zokirjon Mashrabov boshqarib kelmoqda. Ushbu ekspeditsiyaning sa'y-harakatlari tufayli Zahiriddin Muhammad Bobur va Boburiylar saltanati tarixiga oid boy ma'lumotlar to'plandi, shuningdek, ilmiy jamg'armaning bibarxivi tashkil etildi.

Boburiylar diplomatsiyasida tolerantlik (bag'rikenglik), diniy tafovutlardan inson omilini ustun qo'yish, imkon qadar ziddiyatlarni tinchlik yo'li bilan hal etish, ajdodlar an'ana va qadriyatlariga sodiqlik, davlat yuksalishiga xizmat qilish

---

<sup>1</sup>Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. – T.: Sharq; 1998. –B. 8.

<sup>2</sup>Karimov I.A. "O'rta asrlar Sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy sivilizatsiya rivojidadagi roli va ahamiyati" mavzusidagi xalqaro konferensiyadagi nutqi / Samarqand, 2014 yil, 14 may // Xalq so'zi, 2014 yil. 15 may.

tendensiyalari yetakchilik qilgan. Ular tashqi siyosati tizimli asosda yuritilganligiga guvoh bo'lamiz.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev: “O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgan dastlabki kunlardan boshlab puxta o'ylangan tashqi siyosatni amalga oshirib kelmoqda. Uning zamirida o'zbek xalqining ko'p asrlik tarixi va madaniyati, an'ana va qadriyatlari, ezgu orzu-intilish va manfaatlari mujassamdir”<sup>3</sup> - deb fikr bildirganlarida temuriy va boburiy hukmdorlarning davlatchilik siyosatini ham nazarda tutganliklari o'z-o'zidan ayon. Maskurmagistrlik dissertatsiyasining dolzarbligi va o'rganilishi zarurati yuqoridagi asoslardan kelib chiqadi. Shuningdek, Boburiy hukmdorlarning XVI-XVIII asrlardagi diplomatiyasi yaxlit ilmiy tadqiqot sifatida istiqloq mafkurasi talablari asosida o'rganilmagani ham biz tanlagan mavzu dolzarbligidan dalolat berib turibdi.

**Dissertatsiyaning maqsad va vazifalari.** XVI- XVIII asrlarda Shimoliy va Markaziy Hindistonni mustaqil boshqargan Boburiy hukmdorlarning diplomatsiyasi qo'shni va boshqa xorij mamlakatlari bilan ularning siyosiy munosabatlarini tizimli ravishda o'rganish dissertatsiya maqsadini tashkil etadi. Yuqoridagi maqsaddan kelib chiqib dissertant quyidagicha aniq vazifalar belgilab oldi:

- Boburiylar davlatidagi ma'muriy boshqaruv tizimidagi tashqi siyosat yo'nalishlariga umumiy tasnif berish;
- Zahiriddin Muhammad Bobur va boburiy hukmdorlar diplomatsiyasining tarixiy ildizlariga baho berish;
- Hukmdorlarning Hindistonni boshqarishdagi diplomatik nazokat va mahoratini ilmiy jihatdan tahlil qilish;
- Boburiylar davrida Hindiston va O'rta Osiyo elchilik aloqalari haqida fikr yuritish;
- Boburiylar hukmdorlarning ajdodlar yurti Turkistonga bo'lgan munosabatlari to'g'risida imkon qadar fikr yuritish;

---

<sup>3</sup>Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. –T.: O'zbekiston; 2018. –B. 383.

- Boburiy hukmdorlar diplomatiyasidagi tarixiy tajriba, yutuq va foydalanilmagan imkoniyatlar to'g'risida fikr-mulohazalar bildirish;
- Zahiriddin Muhammad Bobur va boburiylarning Hindistonda yashayotgan hozirgi kundagi avlodlari, mustaqil O'zbekiston bilan ular munosabatlarini yoritish;
- Tadqiqotning so'ngida yakuniy ilmiy xulosalarga kelish va tegishli taklif-tavsiyalar ishlab chiqish.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Hindiston tarixida muhim rol o'ynagan, salkam uch yarim asrlik tarixga ega bo'lgan boburiylar sulolasi hukmronligi tarixi masalalari yuzlab tadqiqotlarga asos bolgan. Mavzu mazmunini ochib berishga qaratilgan tadqiqotlarni taxminan uch guruhga bo'lish mumkin:

1. Sovet hokimiyati yillarida yaratilgan tadqiqotlar;
2. Mustaqillik yillarida chop ettirilgan ishlar;
3. Xorijda e'lon qilingan kitob va risolalar.

Sovet hokimiyati yillarida "boburshunoslik" tadqiqotlari nafaqat badiiy adabiyot va adabiyotshunoslik sohasida, qolaversa ijtimoiy-gumanitar fanlarning turli yo'nalishlarida ham olib borilganligiga ham guvoh bo'lamiz. Zahiriddin Muhammad Bobur asos solgan davlat rasmiy adabiyotlarda "Buyuk mo'g'ullar sulolasi" sifatida nomlanib, bu nomlanishning tarqalishiga sabab, Hindistonda shimoldan kelgan barcha fotihlarni mahalliy aholi "mo'g'ullar" deb hisoblashlari tufaylidir. Aslida Zahiriddin Muhammad Bobur va uning avlodlarida ham temuriy ham mo'g'ul hukmdorlari qoni borligi tarixdan ma'lum. Zahiriddin Muhammad Bobur ota tomondan Sohibqiron Amir Temurning ikkinchi o'g'li Mironshohga (1366-1408) borib taqalsa, ona tomondan mo'g'ul hukmdori Yunusxonning katta qizi Qutlug' Nigorxonning o'g'li edi. Ehtimol Zahiriddin Muhammad Boburning mo'g'ullarga borib taqalishi ham "Buyuk mo'g'ullar sulolasi"-degan atamani ishlatishga turtki bo'lgandir.

Sovet hokimiyati yillarida Boburiylar tarixiga oid yaratilgan asarlar va maqolalar hukmron mafkura ta'siri doirasidan ancha chiqib ketgan hamda asl manbalarga tayangan holda yozilgandi. Shu sababli bo'lsa kerak ularning ayrim

mualliflari milliy mahdudlik va sotsialistik tuzumga qarshi sifatida ta'qib ostiga olindi.

Sovet hokimiyati davrida yaratilgan tadqiqot mualliflaridan K.A.Antonova, I.Nizomiddinov, H.Hasanov, S.Azimjonova<sup>4</sup> kabilarning asar va maqolalarini kiritish mumkin. Yuqorida ism-shariflari zikr qilingan olimlarning tadqiqotlaridan Boburiy hukmdorlar diplomatiyasiga oid boy ma'lumotlar olish mumkin.

Sovet hokimiyati yillarida Zahiriddin Muhammad Bobur va boburiylar tarixiga oid ijodkor olim, adabiyotshunos va olim Pirimqul Qodirov o'zining tarixiy manbalar asosidagi "Yulduzli tunlar" (Bobur), "Avlodlar dovoni" (Akbar)<sup>5</sup> kabi tarixiy romanlarini yaratdiki, ulardan boburiylar diplomatiyasiga oid boy ma'lumotlar olish mumkin.

Mustaqillik yillarida yaratilgan tadqiqotlar doirasi kengayib, boburiylar tarixini istiqlool mafkurasi talablari asosida asl mabalar orqali o'rganishga erishildi.

Eng avvalo ta'kidlash joizki, "Bobur izidan ..." xalqaro ilmiy ekspeditsiya va "Bobur jamg'armasi" a'zolari tomonidan chop ettirilgan ilmiy-ilmiy publitsistik maqolalar hamda asarlarni qayd etish e'tiborga loyiq. Shuningdek, istiqlool yillarida tarixchi olimlardan S.Jalilov, H.Qudratilloev, G'.Sotimov, N.Nizomiddinov, E.Ro'ziyev, Sh.Hayitov<sup>6</sup> kabilarning ishlarini sanab o'tish mumkin. Boburiylar tarixi masalalariga bag'ishlab S.Jalilov va G'.Sotimovning yuzlab maqolalari, Bobur tarixi va uning bugungi avlodlari hayotiga qaratilgan professorlar R.T.Shamsutdinov va Sh.Hayitovlarning o'nlab maqolalari O'zbekiston davriy matbuotida chop

---

<sup>4</sup> Антонова К.А. Очерки общественных отношений и политического строя монгольской империи Акбара (1556-1605 гг.) – М.: Изд. АН СССР. 1952. -191 стр.; Nizomiddinov I. O'rta Osiyoning chet el Sharqi bilan munosabatlari. –T.: O'zbekiston. 1961. -181 bet.; Shu muallif. XVI-XVIII asrlarda O'rta Osiyo va Hindiston munosabatlari. –T.: Fan. 1966. -167 bet.; Онже. Среднеазиатско-индийских взаимоотношений в XVI-XIX гг. – T.: Узбекистан. 1969. -169 стр.; Hasanov H. Zahiriddin Muhammad Bobur – sayyoh va olim. –T.: O'zbekiston. 1960. -147 bet.; Shu muallif. Bobur jolari (Afg'onistondagi xat) // Sharq yulduzi. 1963. № 5. –B. 150-155.; Shu muallif. O'rta Osiyolik geograf va sayyohlar. –T.: O'zbekiston. 1964. -262 bet.; Азимжонова С. Государство Бобура в Кабуле и в Индии. –М.: Наука. 1977. -317 стр. и т.д.

<sup>5</sup> Pirimqul Qodirov. Yulduzli tunlar. –T.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti; 1980. -440 bet.; Shu muallif. Avlodlar dovoni (Akbar). – Tarixiy roman; –T.: 1989. -544 bet.

<sup>6</sup> Sayfiddin Jalil. Bobur va Yuliy Sezar. –T.: Sharq; 2001. -196 bet.; Shu muallif. Bobur haqida o'ylar. –T.: Sharq; 2006. -112 bet.; Qudratilloev H. Hindistonda Boburiylar sulolasi saltanati. –T.: O'qituvchi; 1996. -134 bet.; Shu muallif. Boburning davlatchilik siyosati va diplomatiyasi. –T.: Sharq; 2011. -431 bet.; Sotimov G'. Markaziy Osiyo va Hindiston tarixida boburiylar davri. –T.: 2008. -296 bet.; Nizomiddinov N. Buyuk Boburiylar tarixi. –T.: "Fan va texnologiya"; 2012. -516 bet.; Ro'ziyev E. Hindistonda Shershoh davlati. –T.: Fan; 1992. -48 bet.; Hayitov Sh. O'zbekistonning xalqaro munosabatlar tarixidan. –Buxoro: 1996. -102 bet.

etildiki, ulardan boburiy hukmdorlar diplomatiyasiga oid boy ma'lumotlar olish mumkin. Dissertatsiya matnini tayyorlashda bunda ilmiy, ilmiy-publitsistik maqolalardan, davriy matbuot materiallaridan keng foydalanildi.

Hozirgi G'arb va Sharq dunyosida boburiylar sulolasi tarixining turli-tuman yo'nalishlarini o'rganishga qiziqish kuchli bo'lib, ko'plab tadqiqotlar ingliz, fransuz, rus, fors, hind, pushtun tillarida chop etilgan.

Angliyalik olim Uilliam Erskin boburiylar sulolasi tarixini o'rganishga munosib hissa qo'shgan olimlardan biri bo'lib, uning o'nlab tadqiqotlari turli mamlakatlar nashriyotlarida bosilgan. Jumladan, Erskin asarlari O'zbekistonda ham o'zbek tilida nashr yuzini ko'rgan.<sup>7</sup> Xorijlik olimlardan Burke, Dau, Muni Lal, Tripathi Richards<sup>8</sup> kabi o'nlab mutaxassislar boburiylar tarixiga oid ishlarini e'lon qildilar. Dissertatsiyani manbaviy jihatdan boyitishda internet ma'lumotlaridan ham foydalanildi. Boburiylar saltanati tarixiga oid tadqiqotlar o'rganilar ekan, shu paytga qadar XVI-XVIII asrlardagi xronologik chegaralardagi boburiylar diplomatiyasiga oid yaxlit ilmiy ish yozilmaganligi ayon bo'ladi. Bu jihat esa bizga ushbu mavzuni magistrlik dissertatsiyasi doirasida tadqiq qilish imkonini berdi.

**Tadqiqotning obyekti va predmeti.** XVI-XVIII asrlarda Boburiy hukmdorlarning diplomatiyasi va tashqi siyosati asoslari dissertatsiyaning obyekti sifatida tanlandi.

Tadqiqotning predmetini Boburiy hukmdorlar diplomatiyasining shakllanishi, yo'nalishi, mohiyati, natijalari va davlat boshqaruvidagi ahamiyati masalalari tashkil etadi.

**Dissertatsiyaning ilmiy-nazariy yangiligi.** Ushbu magistrlik dissertatsiyamizning ilmiy-nazariy yangiligi quyidagilarni tashkil etadi. Hindistondagi 332 yillik hukumronlik (1526-1857) ning XVI-XVIII asr boshlari davri Boburiylar sulolasi davlatni mustaqil idora qilgan asrlarga to'g'ri keladi.

---

<sup>7</sup> Erskin Uilliam. Bobur Hindistonda. –T. Fan; 1995. –B 111.

<sup>8</sup> Burke S.M. Akbar. The Greatest Moghul government (1556-1707). New Delhi. 1994.; Muni Lal. Humayun. New Delhi. 1978; Tripathy R.P. Some aspects of Muslim administration. Allahabad. 1989; Shu muallif. Rise and fall of the Mughal Empire. Allahabad. 1991; Richards John F. The Moghul Empire. In The New Cambridge history of Jnda. Cambridge. 1993 va hokazo.

Aynan shu davrda boburiy hukmdorlar o'zlari barpo etgan davlatda mustaqil ichki va tashqi siyosat yuritdilar. Boburiy hukmdorlar diplomatiyasining tarixiy asoslari va ildizlarini, maqsad va mohiyatini yaxlit holda, tizimli ravishda dissertatsiyada o'rganilishi ishning ilmiy-nazariy yangiligiga kiradi.

Ikkinchidan, Boburiy hukmdorlar diplomatiyasidagi o'ziga xoslik, tarixiy tadrijiylik, murakkab ziddiyat va jarayonlar, yutuq va kamchiliklar qiyosiy tahlil metodi hamda umumiy qonuniyatlar tamoyillari asosida ishda bayon etildi.

Dissertatsiyada Boburiylar diplomatiyasining tarixiy tajribasi umumlashtirilganligi Zahiriddin Muhammad Bobur va uning bugungi Hindistondagi avlodlari haqida alohida to'xtab o'tilganligi ham tadqiqot ilmiy-nazariy yangiligiga kiradi.

**Dissertatsiyaning nazariy-metodologik asosi.** Dissertatsiyada ilmiy tadqiqotlar olib borishning tarixiy jarayonlar tahliliga sivilizatsion, umuminsoniy va milliy qadriyatlar uyg'unligi, miqdoriy va sifatiy qiyosiy tahlil, obyektivlik, tizimlilik tamoyillariga tayanilgan asosda ish ko'rildi. Tarixiy tadqiqotlar olib borishning sinergetik, dialektik, germeneytik kabi usullaridan foydalanildi. Tadqiqotning nazariy-metodologik asosini mustahkamlashda O'zbekiston Respublikasi qonunlari, 2012 yilda qabul qilingan "O'zbekistonning tashqi siyosat konsepsiyasi"da ilgari surilgan masalalar, shuningdek, Birinchi Prezident I.A.Karimov (1938-2016) va Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning asarlari, nutqlari hamda ma'ruzalari amaliy jihatdan qo'l keldi. Shuningdek, tarixchi va siyosatchi olimlardan boburiylar tarixi muammosi bilan shug'ullangan I. Nizomutdinov, S. Azimjonova, K.A. Antonova, H. Qudratillayev, H. Hasanov, S. Jalilov, E. Ro'ziyev, Sh. Hayitov kabilar tomonidan yaratilgan tadqiqotlardagi ilgari surilgan fikr va g'oyalari dissertatsiya nazariy-metodologik asosini kuchaytirishga xizmat qiladi.

**Dissertatsiyaning ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Boburiy hukmdorlarning davlat boshqaruvida tashqi siyosat yo'nalishlari, diplomatiyasi asoslari va joriylanishida nazariy xulosalar hamda yangi uslubiy yondashuvlarni ishlab chiqishga xizmat qiladi.



Dissertatsiya natijalarining amaliy ahamiyati ishda ilgari surilgan ilmiy g'oyalar, keltirilgan materiallar va xulosalardan Jahon va O'zbekiston tarixini o'qitish, Hindiston tarixining o'rta asrlar davrini o'rganish, jumladan maxsus kurslar ishlab chiqish, o'quv qo'llanmalar yaratish hamda ma'ruzalar tayyorlashda foydalanish mumkin. Shuningdek, O'zbekiston va Hindiston o'rtasidagi diplomatik, o'zaro manfaatli iqtisodiy, madaniy, ilmiy-texnikaviy aloqalarni rivojlantirish sohasi uchun tadqiqot natijalarini jalb qilish mumkin.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Tadqiqot natijalari yuzasidan Buxoro davlat universitetining 2017-2018; 2018-2019 o'quv yillarida o'tkazilgan an'anaviy ilmiy-nazariy anjumanida ma'ruza qilingan. Dissertant tadqiqotda keltirilgan dalil va raqamlardan foydalanib, maktab hamda universitetda seminar mashg'ulotlari o'tgan. Shuningdek, dissertatsiya mavzusi bo'yicha 2 ta ilmiy ish, shu jumladan, 1 ta maqola va 1 ta tezis chop etilgan. Dissertatsiya Buxoro davlat universiteti Jahon tarixi kafedrasida bajarilgan va O'rta asrlar tarixi fanidan o'quv yili dasturi va majmuasini tayyorlashda undagi materiallardan foydalanilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uchta bob, 7 ta paragraf va xulosa, foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yxati, ilovadan iborat. Ishning umumiy hajmi 77 betni tashkil etadi.

## **I BOB. BOBURIYLAR DIPLOMATIYASINING TARIXIY ILDIZLARI VA ASOSLARI**

### **1.1. Boburiylar davlati haqida umumiy tasnif**

Zahiriddin Muhammad Bobur (1483-1530 yillar ) atoqli davlat arbobi,shu bilan birga iste'dodli shoir, tarixchi, zakovatli olim, mohir diplomatdir. U inqirozga yuz tutgan temuriylar davlatini saqlab qolish va mustahkamlash, O'rta Osiyoda markazlashgan yirik davlat vujudga keltirish uchun uzoq va qattiq kurash olib bordi. Biroq tarixiy sharoit bunga imkon bermagach, u Afg'onistonni va Hindistonni egallab oldi va katta imperiyani vujudga keltirdi. U asos solgan davlat Afg'oniston va Hindistonning siyosiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyotida o'chmas iz qoldirdi<sup>9</sup>

Zahiriddin Muhammad Bobur asos solgan (1526) Boburiylar imperiyasi uning nabirasi Akbarshoh davridan to shoh Avrangzebning vafotiga qadar Hindistonda yagona kuchli davlat bo'lib qoladi. Boburiylar davlati Hindistonning Angliya tomonidan bosib olinishiga qadar yashadi.

XVI asrda Hindistonda siyosiy tarqoqlik hukm surardi. o'zaro ichki nizolar va urushlar mamlakatni kuchsizlantirgan edi. Hindistondagi ichki siyosiy ahvolni sinchkovlik bilan kuzatib turgan Qobul hukmdori Zahiriddin Muhammad Bobur vaziyatdan foydalanishga qaror qildi va Hindistonni egallash uchun harbiy yurish rejalarini tuzadi. Birinchi navbatda Panjob viloyatini ishg'ol qilishni mo'ljallaydi. Chunki u Panjobni ulug' bobosi Amir Temurdan qolgan meros deb hisoblardi. Zahiriddin Muhammad Bobur Hindistonga harbiy yurishni 1519- yildan boshlab , uni faol amalga oshira boshlaydi va 1526- yilgacha besh marta harbiy yurish qiladi.<sup>10</sup>

Bu davrda Shimoliy Hindistondagi Dehli sultonligida lo'diylar sulolasi hukmronlik qilardi. Bobur Mirzoning Hindistonga qarshi harbiy yurishi 1525-yilning oxirida boshlandi. 1526- yilning 21-aprelida Panipat jangida Ibrohim Lo'diy qo'shinini tor-mor keltirdi. 27-aprel kuni esa Dehli shahrida Bobur podshoh nomiga xutba o'qildi. Shu tariqa tarixda 332 yil yashagan yangi imperiya - Boburiylar

---

<sup>9</sup> Нуриддинов.М Бобурийлар сулоласи., Т., "Фан", 1994.Б.3

<sup>10</sup> Ҳошимов.И.Хиндистонда бобурийлар сулоласи салтанати., " Т., "ЎҚТУВЧИ", 19.Б. 8

imperiyasiga asos solindi. Bobur Hindistonda o'zi bilan qolgan qo'shinga jogir tarqatdi. Bu yerlarda xo'jalik yuritish ishlariga rahbarlik qilish mahalliy urf-odatlarni yaxshi biladigan hindlarga topshirildi. Bobur podshoh imperiya taxtida uch yil o'tirdi. 1530- yilda o'limidan avval imperiya hududlarini o'g'illariga bo'lib berdi. Imperiya taxti katta o'g'li Humoyunga nasib etdi. Panjob, Qobul va Qandahorga ega bo'lgan qolgan uch o'g'liga akalari Humoyunga bo'ysunishni vasiyat qildi.<sup>11</sup>

Humoyun imperiya sarhadlarini yanada kengaytirishga intildi. Bu kurashda uning asosiy raqibi Bixor va Bengaliyada joylashib olgan afg'on qabilalarining yetakchisi Sherxon Sur bo'ldi. Ikki sarkarda qo'shinlari o'rtasidagi jangda Sherxonurning qo'li baland keldi. Mag'lubiyatga uchragan Humoyun Eronga qochib ketdi. Sherxon Sur Hindiston taxtini egalladi va shoh deb e'lon qilindi. Bu hodisa 1540-yilda yuz berdi. Sherxon Sur va uning o'g'illari 1554-yilgacha hukmronlikni saqlab turdilar. Biroq bu davr shiddatli va shafqatsiz ichki kurashlar bilan o'tdi. Oqibatda Hindistonda og'ir siyosiy vaziyat vujudga keldi. Bundan Humoyun ustalik bilan foydalandi. Taxtdan ayrilgan yillarda u turk, fors, turkman va o'zbeklardan iborat kuchli qo'shin tuza olgan edi. 1555- yilda Humoyun Hindiston taxtining da'vogarlarini tor-mor etib, yana hokimiyatni o'z qo'liga qaytarib oldi. Unga taxtda uzoq o'tirish nasib etmadi. Oradan ko'p vaqt o'tmay Humoyun tasodifiy falokat tufayli halok bo'ldi. Boburiylar sulolasi hukmdorlari ichida «Buyuk Akbar» degan unvonga sazovor bo'lgan Humoyunning o'g'li Akbarshoh (1542-1605) 1556- yilda otasi taxtini egalladi. Akbarshoh hamisha uzoqni ko'zlab siyosat yuritdi. Shu tufayli u Hindistonda o'z hukmronligini to'la va uzil-kesil o'rnatdi. Shuning uchun ham uni Hindistondagi Boburiy hukmdorlar ichida eng ulug'i -«Buyuk Akbar» deb atashgan. Hind tarixchisi Ishvari Prasadning fikri bilan aytganda, «Akbar Hindiston tarixidagina emas, balki jahon tarixida ham eng buyuk shohdir. Agar yevropalik

---

<sup>11</sup> Гулбаданбегим. Хумоюннома, Т., 1959. Б.27

hukmdorlar bilan taqqoslanadigan bo'lsa, Akbar ulug'vorlikda ham, omadbarorlikda ham ulardan ustun turadi."<sup>12</sup>

Akbarshoh davrida (1556—1605) Boburiylar imperiyasi chegaralari shimolda Tibet chegaralaridan janubdagi Godavari daryosigacha va G'arbda Gujaratdan Sharqda Bangol qo'ltig'igacha bo'lgan ulkan hududlarni o'z ichiga olgan edi. Rajputan hokimliklari — Mevar va Marvar (Amber) hamda Gondvanada joylashgan bir qancha mayda hind rojaliklari ham Akbarshoh imperiyasiga bo'ysundirilgan edi. Shuningdek, Malva, Berar, Gujarat, Xandesh, Kashmir va qisman Ahmadnagardagi musulmon hokimliklari va so'ngroq Qandahor ham imperiyaga qo'shib olingan va yigirma bir ta katta suba — o'lkalardan tashkil topgan edi.

Akbarshoh bunday buyuklikka osonlikcha erishgan emas. Uning asosiy raqibi Hindistondagi afg'on qabilalari yetakchilari edi. Akbarshoh qo'shini 1556- yilda afg'on qabilalari qo'shinini tor-mor etdi. 1559- yilga kelib taxt uchun boburiylarga qarshi kurashning yetakchi kuchlari - afg'onlarning Sur sulolasi butunlay yanchib tashlandi. Akbarshohning hukmronlik yillari imperiyaning oltin davri bo'lgan. Akbarshoh zukko davlat arbobi, mohir sarkarda bo'lishi bilan bir qatorda, itoatkor o'g'il, g'amxo'r ota ham edi. Qo'l ostidagi xalqlarning turmush farovonligi doimo uning e'tiborida turgan. Kambag'al, beva-bechoralarga muntazam moddiy yordam ko'rsatgan. Akbarshoh falsafa, din, adabiyot va tarix ilmini yaxshi egallagan. U boshqa din vakillariga nisbatan ham adolatli siyosat yuritgan. Akbarshoh musulmon bo'lmaganlardan undiriladigan «juzya» solig'ini bekor qilgan. Hindlarning ziyoratgohlaridan olinadigan soliqni man etgan. Imperiya hududida yagona savdo solig'i joriy etilgan. Ham xolisa, ham jogirdorlar yerlaridan teng miqdorda soliq undirilgan. Davlat idoralariidagi lavozimlar, dini va mazhabidan qat'i nazar, shaxsning salohiyatiga qarab taqsimlangan. Akbarshoh barcha fuqarolarga e'tiqod erkinligi bergan. Bir so'z bilan aytganda, Akbarshoh hindlar bilan musulmonlarning yonma-yon, tinch-totuv yashashlariga erishgan. Akbarshoh yuritgan bunday adolatli siyosat boburiylar davlatining ulkan imperiyaga aylanishida, uning mahalliy aholi

---

<sup>12</sup> Prasad Saksena. History of Shahjahan of Dehli. Allahabad, 1958.

va amaldorlar tomonidan qo'llab-quvvatlanishida katta rol o'ynadi. Bu esa, o'z navbatida, imperiyaning qudrati va shon-shuhratining yanada ortishiga xizmat qilgan. Akbarshoh Hindistonda yuritgan adolatli siyosati evaziga «Milliy podshoh», «Xalq hukmdori» nomlariga ham sazovor bo'lgan.<sup>13</sup> Biroq XVII asr ikkinchi yarmidan boshlab imperiyada toj-u taxt uchun kurash avj oldi. Oxir-oqibatda, bu kurashda 1627-1658- yillarda hukmronlik qilgan Shoh Jahon (Akbarshohning nabirasi)ning o'g'i Avrangzeb g'alaba qozondi. U 1658- yilda Dehli shahrini egalladi va o'zini shoh deb e'lon qildi.

Avrangzeb hukmronligi davrida (1658-1707) imperiya hududi yanada kengaydi, o'z qudratining cho'qqisiga erishdi. Biroq ayni Avrangzeb hukmronligi yillarida imperiya inqirozi uchun zamin ham yetila bordi. Xo'sh, bu nimalardan iborat edi? Avvalo, Avrangzebning hech kimga ishonmasligi, hamma narsaga shubha bilan qarashi davlati arkon hamda mahalliy hind hukmdorlarining undan ko'nglini sovitdi. Ikkinchidan, Avrangzeb o'ta jaholatparast edi. U o'zini faqat mamlakatni idora qilish uchungina emas, balki islom dinini himoya qilish va uning yoyilishi ko'lamini yanada kengaytirish uchun ham taxtga chiqqan hukmdor deb hisoblardi. Shu tufayli musulmon bo'lmagan fuqarolarni islom diniga o'tkazish uchun hech narsadan qaytmadi. Bunday siyosat oqibatida mamlakatning musulmon bo'lmagan aholisi uning itoafkor fuqarosiga emas, balki g'azablangan raqibiga aylandi. 1679- yildan hindlar qaytadan «jizya» solig'ini to'lashga majbur etildi.<sup>14</sup> Hatto hindlarning muqaddas ziyoratgohlarga boruvchilaridan ham soliq olinadigan bo'ldi. Musulmon savdogarlari soliqdan ozod qilingani holda, hind savdogarlariga tovarning 5 foizi miqdorida soliq joriy etildi. Soliq yig'uvchi idoralardagi mansabdor hindlar asta-sekinlik bilan lavozimlaridan bo'shatila boshlandi. Avrangzebning bu siyosati oxir-oqibatda Boburiylar imperiyasining chok-chokidan so'kilib ketishiga olib keldi.

Boburiylar imperiyasi - feodal jamiyatidan iborat bo'lib, imperatorning o'zi esa mamlakatda birinchi katta mulk egasi va yer egalari - feodallar manfaatini himoya qiluvchi davlat boshlig'i hisoblanar edi.

---

<sup>13</sup> Синха Н. К., Банерджи А. Г., История Индии, М., 1954.

<sup>14</sup> Низомиддинов И.Ф. - XVI-XVIII асрларда Ўрта Осиё - Ҳиндистон муносабатлари., Т., "Фан", 1966

Boburiylar imperiyasida yerga egalikning uch asosiy shakli — xolisa, jogirdor va zamindor mavjud edi.

Xolisa yoki davlatga qarashli yerlar podshohning shaxsiy mulki hisoblanib, ular XVI asrning ikkinchi yarmi va XVIII asrda barcha hosildor yerlarning sakkizdan bir qismini tashkil qilar va bu yerlardan tushgan daromad shoh hamda shoh oilasining ehtiyojlariga, saroy va shoh qo'shinini ta'minlash uchun sarf qilinardi.<sup>15</sup>

Mamlakatdagi dehqonchilikka yaroqli asosiy yerlar jogirdorlar qo'lida edi. «Jogirdor»ning lug'aviy ma'nosi «joy olgan», «joyga egalik qiluvchi» bo'lib, «jogir» asosan harbiy xizmatlar evaziga tortiq qilingan yerlardir. Jogir yerlar vorisiy hisoblanmas edi, jogirdorlar o'z yerlarining hajmiga muvofiq ma'lum sondagi qo'shinni saqlash va ta'minlashlari hamda zarur bo'lgan vaqtda shu qo'shin bilan shohga yordam ko'rsatishlari kerak edi.

Jogir yerlarning hajmi turlicha bo'lib, butun bir pargama - tumanlar ham jogir sifatida tortiq qilinardi.

Zamindorlar - ma'lum o'lka va qishloqlardan davlatga to'lanishi lozim bo'lgan yer solig'ini ijaraga olgan savdogarlar ichidan chiqqan kishilar edi. Bu yer egalari ijaraga olgan yerlariga vorisiylik asosida egalik qilardilar. Zamindorlar asosan Bangol, Bihar va Orissa viloyatlarida asosiy yer egalari aylanmoqda edilar.

Yuqorida ko'rsatilgan yerga egalikning uchta asosiy shaklidan tashqari hind ruhoniylari va roja hamda roylarga tegishli kichik yer egaliklari va jamoa yerlari ham mavjud edi.

Jogirdor va zamindorlar o'z ixtiyorlaridagi mulklarda mustabid hokim edilar, ular yer solig'i sifatida hosilning ko'rsatilgan miqdoridan ko'p ulushini tortib olar va bu ulush ba'zi hollarda hosilning yarmidan ham ortib ketar edi.

Asosiy soliqdan tashqari hind dehqonlari qo'shimcha soliq va jarimalar to'lashga, jumladan, begor nomi bilan turli inshoot va qurilishlarda ishlashga majbur qilindilar. Buning ustiga Akbarshoh tomonidan bekor qilingan, musulmon

---

<sup>15</sup> Шарма Р. Бобурийлар салтанати (Инглиз тилидан Ф.Сотимов тарж.). -Т., 1999.

bo'lmagan - hindlardan talab qilinadigan jizya — jon solig'i Avrangzeb davrida yana tiklangan edi.

Shunday qilib, Boburiylar imperiyasida ijtimoiy va iqtisodiy ahvol feodal tartibda edi. Norozilikning kuchayishi natijasida xalq qo'zg'olonlari bo'lib turardi, bu norozilikdan ko'pincha hind rojalari o'z manfaatlari yo'lida foydalanishga harakat qilardilar.

XVI asrning ikkinchi yarmi va XVIII asrlarda Hindistonda hunarmandchilikning dehqonchilikdan ajralib chiqish jarayoni davom etmoqda edi. Hindistonda hunarmandchilik mahsulotlari ishlab chiqarishda ma'lum kasb bo'yicha bir shirkatga birlashish hollari ro'y bermoqda edi.

Hunarmandchilik mahsulotlarini boshqa viloyatlarga olib borib sotuvchi savdogarlar soni borgan sari orta bordi.

Hunarmandlar o'z mahsulotlarini qishloq xo'jalik mollariga ayirboshlar ham edilar. Bu kishilarga iqtisodiy tanqislikka uchragan vaqtda ularga qishloq xo'jalik mollarini qarz bergan yer egalari ishlab chiqarilgan mahsulotlarni mutlaq arzon bahoda sotib olish huquqiga ega bo'lardilar. Hunarmandlarga qarz berib, ular yetishtirgan mahsulotlarga ega bo'lish savdogar — sudxo'rlar tomonidan ham amalga oshirilardi.

Podshoga qarashli yerlarda ham hunarmandlarni shirkatga uyushtirish, korxonalarda majburiy ishlatish hollari sodir bo'la boshlagan edi. «Oyini Akbariy»da xabar berilishicha, saroy qoshida to'quvchilar, bo'yoqchilar, qurol-aslaha ishlab chiqaruvchilar uyushmalari tashkil qilinib, bu korxonalarda ishlovchilarga oz miqdorda pul bilan haq to'langan.

Korxonalarda «chire» nomli mashhur tilla suvi yuritilgan matolar, «fo'ta» - belbog'lar, xalatlar uchun «jomavar», baxmal, zarbop va qalin ipak matosi - «xara» hamda turli xil matolar to'qib chiqarilardi.<sup>16</sup>

---

<sup>16</sup> Уринбоев А., Абдураззоқ Самарқандийнинг Ҳиндистон сафарномаси, Тошкент, УзССР ФА нашриёти, 1960, Б.22

Podsho va katta yer egalari, savdogarlar tomonidan qishloq xo'jalik mollariga almashtirilgan yoki haq to'lab qo'lga kiritilgan hunarmandchilik mollari ichki va tashqi bozorlarga chiqarilar va shu yo'l bilan ham katta foyda olinardi. Sayyoh Monserratening ko'rsatishicha, Akbarning o'zi yirik savdogar bo'lgan va savdodan yaxshigina foyda olgan.

Hunarmandchilikning dehqonchilikdan ajralib chiqishi, ichki va tashqi savdoning o'sishi pul - tovar munosabatlarini keltirib chiqardi va rivojlantirdi, buning natijasida podsho saroyi va feodallarning pul - boylikka bo'lgan ehtiyoji ortadi, bu hol o'z navbatida, ishlab chiqarishni rivojlantirish jarayonini kuchaytiradi.

Katta mulk egasi, jogirdor va zamindorlarning markaziy davlatga bo'ysunmaslikka intilishlari, hind rojaliklarining o'z mustaqilliklari uchun tinmay kurashishlari va nihoyat, xalq qo'zg'olonlari XVIII asrga kelib Boburiylar imperiyasini siyosiy va iqtisodiy tomondan zaiflashtirib qo'ygan edi.

Angliya va Hindiston masalasiga kelsak, mavjud bunday sharoitda Hindistonga yevropaliklarning kirib kelishi kuchaydi. Yevropa imperiya davlatlari hukmron doiralarining maqsadi, Hindistonning bitmas-tuganmas boyliklariga, unumdor yerlariga ega bo'lish edi. Yevropa davlatlari hukumatlari endilikda o'z maqsadlarini ro'yobga chiqarishga kirishishdi. Chunonchi, 1757- yilda ingliz qo'shini Bengaliyani bosib oldi. Bu boy hudud inglizlarning keyingi bosqinchilik rejalarini amalga oshirishda tayanch vazifasini o'tadi. Shu tariqa Angliyaning Hindistonni asta-sekin o'z mustamlakasiga aylantirish davri boshlandi.

## **1.2. Boburiylar diplomatiyasidagi vorisiylik an'anasi: Amir Temur va boburiy hukmdorlar**

Sohibqiron Amir Temur (1336-1405 yy)ning avlodi bo'lgan Zahiriddin Muhammad Bobur<sup>17</sup> (1483-1530 yy) jahon tarixida muhim iz qoldirgan va dunyo xalqlari sivilizatsiyasiga muhim hissa qo'shgan insondir. Bu buyuk siymo ulug'

---

<sup>17</sup> Z.M.Bobur Amir Temurning ikkinchi o'g'li Mironshoh (1366-1408) naberasi Sulton Abu Saidning farzandi Umarshayx Mirzoning to'ng'ich farzandi bo'lib, Andijonda tavallud topgan. Umarshayx Mirzo Farg'ona viloyati hukmdori bo'lgan.



bobokaloni davlati qudratini Hindistonda tikladi. Amir Temur va Bobur o'rtasrlarda ulkan saltanatga asos soldilar. Fan va madaniyat homiysi, adolat va xalqparvar hukmdorlar bunyodkor inson sifatida tarix sahifalaridan joy oldilar.

Amir Temur va Zahiriddin Muhammad Bobur qadamlari qayerga yetmasin, o'sha joyda o'zlaridan biror bir iz qoldirdilar, zafarli harbiy yurishlari haqida qoyatoshlarga zafarnomalar yozdirib qoldirish, biror bir bino yoxud bog' barpo qildirish ikkala hukmdorlarda ham mavjud bo'lgan mushtarak xislat edi. Lion va Kastiliya (Ispaniya F.X.) qirolu Genrix III de Trastamaraning elchisi Lui Gonsales de Klavixo Amir Temur davlatiga elchi bo'lganida (1403-1406 yy) ulug' hukmdor poytaxtining 4 qutbida mevali bog'larning masofasi 1,5 liggacha cho'zilganligini havas va ehtiros bilan o'z "Kundaligi"da yozdirgan edi. Agar 1 lig – 4 km lik masofa o'lchovi bo'lsa, Samarqand shahri tarafi har tomoni 6 km lardan, jami, 24 km li masofada bog'-rog'lar bilan qurshalganligiga guvoh bo'lamiz.<sup>18</sup> Bobur ham harbiy harakatlardagi g'alabasi sharafiga bog' qurdirishni o'zi uchun odat qilgandi. U ham ulug' bobokaloni singari bunyodkor ishlarni o'z faoliyatining mazmuni, deb bilardi.

1526 yil 21 aprel mashhur Panipat (Hindiston) jangida g'olib qilgan Zahiriddin Muhammad Bobur g'alabasi sharafiga yirik bog' barpo etdi va o'zi avvalo, uning mevasidan bahramand bo'ldi.

Afg'onistonlik tadqiqotchi G'.S.G'ayrat "Bobur va uning yaqinlari Qobul shahrida ko'plab bog'-rog'lar va saroylar barpo etdilar. Ular Olamoro, Shohoro, Olamganj, Bog'i Bobur va boshqalar"<sup>19</sup> – deb yozgandi.

Amir Temur va Zahiriddin Muhammad Boburda jismonan kuchlilik, yuksak harbiy qobiliyat, sarkardalik mahorati, davlat boshqaruvida tadbirkorlik bilan ish tutish, axloqan va ma'nau barkamollik kabi mushtarak jihatlar ko'p bo'lgan. O'sha paytlarda harbiylarning kuchini belgilaydigan mezon, bu jangga kiradigan barvasta otni musht urib g'andiraklata olish bo'lgan. Amir Temur ham, Zahiriddin Muhammad Bobur ham shunday kuch-quvvatga birdek ega bo'lishgandi.

---

<sup>18</sup> Lui Gonsales de Klavixo. Amir Temur saroyiga sayohat Kundaligi (1403-1406 yillar). Professor Ochil Tog'ayev tarjimai. –T.: O'zbekiston; NMJ; 2010. –B. 56.

<sup>19</sup> Ahmedov B. Amir Temur darslari. –T.: Sharq; 2000. –B. 90.

Sohibqiron Amir Temur buyuk saltanatga asos solar ekan, 1398 yilning mayidan va 1399 yilning mart oylari davomida Hindiston ustiga yurish qilgan edi. O'n biroy davom etgan harbiy yurish ("Hindiston g'azovoti") natijasida Amir Temur bu mamlakatdan katta o'ljalar bilan qaytdi, shu jumladan 100 ming hunarmand ustalar, 120 ta jangovar fillar bilan Samarqandga qaytilgandi. Hindistonda qo'lga kiritilgan o'ljalarning bir qismi Temur qo'shinga in'om sifatida tarqatilgan, bir qismi esa Samarqand va Kesh shaharlarida bunyod etilayotgan qurilish ishlarida ishlatilgan.

Mohir sarkarda, davlat arbobi, shoir va tarixchi Zahiriddin Muhammad Bobur ilk bor Hindistonga 1507 yilda qo'shin tortgan. Adabiyotshunos olim Ergash Ochilovning yozishicha, Bobur Samarqanddan ikkinchi marta ajralib, buning ustiga Andijondan ham mahrum bo'lib, O'ratepaning Dahkat kentidagi Mastcho (Mastgoh) degan tog'li joyida darbadarlikda yurganida xonadonlardan birida 111 yashar keksa onaxon bilan o'zaro suhbatlashib qoladi. Uning qarindoshlaridan biri Amir Temur bilan birgalikda Hindiston safarida bo'lgan ekan. Ushbu suhbat tufayli bu afsonaviy mamlakatning mo'jizakor tabiati yosh shahzoda ko'nglida Hindistonga havas uyg'otgan bo'lsa ajab emas.<sup>20</sup> Qat'iyatli va bir so'zli Zahiriddin Muhammad Bobur 1519 yilga qadar 4-5 bor Hindiston yurishini uyushtirib, muvaffaqiyat qozona olmagan. Nihoyat, 1526 yilda bo'lib o'tgan Ponipat jangida Zahiriddin Muhammad Bobur 12 ming navkari bilan Ibrohim Lo'diyning 100 ming kishilik qo'shini va 1000 ta jangovar fillari ustidan g'alabaga erishdi. Keyinchalik, asosiy raqiblaridan biri bo'lgan hind sarkardasi Rano Sangoni ham yengib, Hindistondagi Lohur, Dehli, Agra shaharlarini to'la egallaydi. Shimoliy Hindistonda poytaxti Agra bo'lgan Boburiylar davlatiga asos solindi va temuriylarning Hindistondagi davlati 332 yil (1526-1858 yy) yashadi.

Zahiriddin Muhammad Bobur Hindiston shimolidagi viloyatlarni birin-ketin bo'ysundirib borar ekan, uning ortidan Movarounnahr va shahar markazlaridan kelib qolgan fuqarolar ham ergashishgan. Ular Zahiriddin Muhammad Bobur Qobul davlatida (1504-1524 yy) hukmronlik (shu yerda hukmdor o'zini temuriylardan

---

<sup>20</sup> Ochilov E. Bobur (Risola). –T.: "ABV MATBUOT KONSALT", -2011. –B. 11.

birinchi bo'lib “podishoh” deb e'lon qilgan, ungacha temuriylar “Mirzo” nomi bilan taxtga o'tirishgan) qilgan yillarda O'rta Osiyodan qochib kelib joylashgan edi. Zahiriddin Muhammad Bobur ushbu insonlarni Hindiston viloyat va muzofotlariga joylashtirgan. Zahiriddin Muhammad Bobur 200 ming sonli farg'onaliklarni tabiiy shart-sharoitlari va ob-havosi O'rta Osiyoga o'xshash bo'lgan Panjob va Kashmir viloyatlariga joylashtirgan. Bobur o'zining shoh asari “Boburnoma”ning uchinchi qismida (mazkur asar uch qismdan iborat bo'lib, birinchi qism 1494-1504 yillarni, ikkinchi qismi 1504-1524 yillarni o'z ichiga qamrab oladi. Tarixiy-geografik memuar asarning uchinchi qismi Hindistonga bag'ishlangan bo'lib, 1525-1530 yillardagi voqealar tafsilotlari bayoniga qaratilgan) Hindiston shimolida joylashgan Kashmir viloyati va shahri haqida ham ma'lumot berib o'tadi.

“Shimoldagi tog'kim, mazkur bo'ldi, Sind (Hind) daryosidan o'tgach bu tog'da Kashmir Tavobei viloyatlardur.. chun bu tag'da mo'tabar shahr Kashmirdur, balki Kashmirdin o'zga bu tog'da shahre eshitilmaydur. Bu jihatdin bo'la olurkim, Kashmir demish bo'lg'aylar<sup>21</sup>” – deb yozgan edi Zahiriddin Muhammad Bobur. Yuqoridagi ta'rifdan ko'rinib turibdiki, Kashmir Hindiston shimolidagi eng muhim strategik ijtimoiy-iqtisodiy mavqega ega bo'lgan hududda joylashgan. Bu viloyatda hozirda istiqomat qilayotgan xalq qiyofasi, qaddi-qomatida O'rta Osiyoliklarga xos ko'pgina belgilar mavjud.

Zahiriddin Muhammad Bobur davlat boshqaruvida bobosi singari ayollarga munosabatda hukmdor e'tiborli, izzat-hurmatli, ayni paytda mehr-oqibatli bo'lgan. Amir Temurning Saroymulxonim maslahatlariga quloq solib ish tutishi, farzandlari va nabiralari tarbiyasini Bibixonimga ishonib topshirganligi tarixdan ma'lum. Bu o'rinda otdan yiqilib savdoyi bo'lib qolga uchinchi o'g'il Mironshoh turmush o'rtog'i Xonzodabegimni savalaganida, kelini ko'rsatgan qonli ko'ylakni ko'rgan Amir Temur uch kun xafaqon bo'lib, hech kim bilan gaplashmay qo'ygani va o'z o'g'lini suyulg'ordan vose' qilganligini eslash kifoya.

---

<sup>21</sup> Bobur. Boburnoma. (Nashrga tayyorlovchi P.Shamsiyev). –T.: Yulduzcha; 1990. –B. 250.

Zahiriddin Muhammad Bobur ham davlatni buvisi Eson Davlat Begim, onasi Qutlug' Nigor Xonim kabilar maslahati bilan boshqargan. Yakkayu-yagona opasi Xonzodabegimni Ahmad Tanbaldek shafqatsiz, ochko'z, qonxo'r, badjahl bekka turmushga bermay, yosh bo'lsada barcha og'irliklarni o'z bo'yniga olgan. Bu kabi dalillar ular faoliyatida o'zaro uyg'unlik va mutanosiblik mavjudligidan dalolat beradi.

Amir Temur 68 yilu 10 oy yashadi, Zahiriddin Muhammad Bobur esa 47 yilu 10 oy umr ko'rdi. Jangu-jadallarda o'ng qo'lu, o'ng oyog'idan yaralanishiga qaramay, umrining so'nggi damigacha harbiy harakatlardan to'xtamagan, Amir Temurning Xitoyga harbiy safari paytida O'tror hokimi Berdibek saroyining sohibqiron uchun maxsus ajratilgan va jihozlangan xonasida hijriy 807 yil shabon oyining 17 kuni (1405 yil 18 fevral)da vafot etdi. Sharafiddin Ali Yazdiy "Zafarnoma" asarida "Temur jon bergan paytda 71 yoshda bo'lgan, shundan 36 yilini podshohlikda o'tkazganligi, farzand va nabiralarining soni ham 36 ta bo'lganligi"ni yozib qoldirgan. Buyuk davlat arbobi va sarkardani o'z saltanati poytaxti Samarqand shahriga keltirib, izzat-ikrom bilan dafn etishgan. Amir Temir qanday kasallikdan vafot etganligi bilan bog'liq ma'lumotlar shu paytgacha o'rganilgan manbalarda uchramaydi. Amir Temur 70 yoshga yaqin umr ko'rsada, antropolog olimlarning tekshirishlari shuni ko'rsatdiki, uning suyaklari 50 yashar kishinikidek mustahkam bo'lgan. U vafotidan oldin atrofini qurshab olgan amir va lashkarboshilarga ikkita barmog'ini ko'rsatgan. Bu "bir, ikki kundan so'ng sizlarning oralaringizda bo'lmayman"<sup>22</sup> – degani edi.

Doimiy harbiy yurishlar, sarson-sargardonliklar, o'zga yurtda yashash bilan bog'liq ma'naviy va ruhiy zo'riqishlar, Ibrohim Lo'diy onasining zaharlashi, taxt vorisi bo'lmish Humoyunning og'ir betob bo'lib qolishi, yangi tug'ilgan o'g'li Anvar Mirzoning to'satdan vafot etishi kabi ko'pdan-ko'p omillar tufayli Zahiriddin Muhammad Boburni umrining so'ngida podshohlik ishlari qiziqitirmay qolgandi. Zahiriddin Muhammad Bobur tushkunlikka tushib qolgan, u vafoti oldidan Agradagi o'zi qurdirgan "Zarafshon" bog'idan chiqmay tanholikda yashadi.

---

<sup>22</sup> Berdimurodov A. Go'ri Amir maqbarasi. –T.: 1996. –B. 35.

Salomatligi yomonlashgan Bobur mislsiz muhabbat va astoydil e'tiqod bilan o'z jonini o'g'li Humoyunga sadaqa qilib, 1530 yil 26 dekabrda 48 yoshni ham to'ldirmay hayotdan ko'z yumdi. Zahiriddin Muhammad Bobur ham Farg'ona vodiysi, Qobul va Hindistondagi hukmronligini qo'shib hisoblasak, 36 yil podshoh bo'ldi. Uning ham o'g'li, qizlari va nabiralarning soni 36 ta bo'lgan.

Zahiriddin Muhammad Boburning jasadi Agradagi o'zi qurdirgan boqqa dafn etildi, vafotidan ancha vaqt o'tganidan keyin xotinlaridan biri Dildorcha xonim tashabbusi bilan uning jasadi Qobuldagi "Bog'I Bobur"ga keltirilib qayta dafn etildi.

1993 yilda Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 510 yilligi munosabati bilan shoh va shoir dunyoga kelgan Andijon shahrida uning ramziy qabri bunyod etildi. Shu o'rinda yana bir mulohaza, Sohibqiron Amir Temur "islom himoyachisi" sifatida Xitoyga qo'shin tortgan bo'lsa, Zahiriddin Muhammad Bobur umrining so'nggi yilida (1529 yil iyun - Sh.H.) odamlarni diniy tafovutga qarab tabaqalashtirishni bekor qilish to'g'risida farmon e'lon qildi. Zahiriddin Muhammad Bobur ulug' bobokalonidan hayotiy masalalarda o'tib ketib, tolerant (bag'rikenglik) ko'rsatgan, har qanday dinga mansublikdan tabiatning oily ne'mati bo'lgan inson ulug' ekanligini chuqur anglagan hukmdor.<sup>23</sup> Bu o'rinda ikki buyuk siymoni bir-biridan 1,5 asrlik tarixiy davr ajratib turganligi, Zahiriddin Muhammad Bobur turli din va e'tiqodlar hukm surgan Hindistonda podshoh bo'lganligini hisobga olmasak insofdan emas.

Sohibqiron Amir Temur "Temur tuzuklari"ni aytib yozdirgan, ayni paytda olimu-ulamolar suhbatlari, ular bahs-munozaralarida ishtirok qilib turadigan, ayrim masalalarda o'zidan boshqacha fikrlaydiganlarga ham sovg'a-salomlar ulashadigan tanti, mard inson bo'lganligi ma'lum. Shuningdek, Amir Temur fan va madaniyat homiysi bo'lganligi haqida ko'p yozildi va yozilmoqda.

Zahiriddin Muhammad Bobur ulug' bobokalonidan 21 yil kam umr ko'rgan bo'lsada, shaxsan o'zidan boy ilmiy, tarixiy, jug'rofiy, badiiy meros qoldirdi. "Qancha ko'p o'qilsa shuncha ko'p lazzat beradigan" (prof. Sayfiddin Jalil -F.X.) tarixiy-geografik asar hisoblangan "Boburnoma", 121 ta g'azal, 200 dan ortiq ruboiy

---

<sup>23</sup> Sayfiddin Jalil Bobur haqida o'ylar. -T.: 2006. -B. 58.

va masnaviylarni o'zida jamlagan "Turkiy devon", sheriy shaklda yozilgan va iqtisodiy-ijtimoiy tartib-qoidalariga bag'ishlangan tarixiy asar, turkey xalqlarning shariyati nazariyasi hamda tarixini o'rganishga qaratilgan "Muxtasar" asari, shuningdek, davlatni idora qilishga, harbiy san'atga, musiqa ilmiga va husnixat bitishga bag'ishlangan tadqiqotlari kabilar Bobur Mirzo ma'naviy merosining boy xazinasidir.<sup>24</sup> Demak, Zahiriddin Muhammad Bobur ulug' bobokalonidek madaniyat va fan homiysi bo'lish bilan birga, insoniyat ma'naviy xazinasini dilbar durdonalar bilan boyitishga shaxsan hissa qo'shdi. U tarixchi sifatida Gerodot bilan birga tursa, ijodkor sifatida Hazrat Alisher Navoiyga tenglashib boradi.

Zahiriddin Muhammad Bobur nomi bilan Hindistonda barpo etilgan davlat 332 yil umr ko'rdi. Sohibqiron Amir Temur davlatini Dashti Qipchoqdan kelgan Shayboniylar egallab, Movarounnahrda turkiy qabilalarning yangi sulolasi hukmronligini boshlab berdilar. So'nggi mustaqil temuriy hukmdor sifatida tarixga Husayn Boyqaro (1469-1506 yy) nomi kirib qolgan. Boburiylar saltanatining oxirgi vakili Bahodirshoh II Zafar bo'lib, uning taqdiri ayanchli kechdi. 1857-1859 yillarda Hindistondagi sipohiylar qo'zg'oloni bostirilgach, Bahodirshoh II ni Rangun (Birma) ga surgun qildilar va uning farzandi hamda nabiralarini inglizlar vahshiylarcha otib tashlashdi. Salkam 3,5 asr hukm surgan boburiylar saltanatining hududlari ushbu voqelikdan so'ng uzil-kesil Buyuk Britaniya mustamlakachilari qo'liga o'tdi.

Nima bo'lganda ham Sohibqiron Amir Temur asos solgan davlat 468 yil umr ko'rdi deb hisoblashimizga Bobur Hindistonda asos solgan davlatning tarixiy ildizlari Amir Temur qurdirgan yirik saltanatga borib taqaladi. Qolaversa, keying boburiylar o'zlarining ulug' bobokalonlari Amir Temurga munosib avlod bo'lishga hamisha intilib keldilar. So'nggi mustaqil boburiy hukmdor Avrangzeb (1658-1707 yy) buyuk bobokaloni Amir Temur xilxonasi (Go'ri Amir) aftoda holda ekanligidan xabar topib, dahmani ta'mirlash uchun Samarqandga katta miqdorda pul va oltin yuborgan. Biroq, mahalliy hukmdorlar oltin pullarning asosiy qismini o'zlashtirib,

---

<sup>24</sup> Sotimov G'. Markaziy Osiyo va Hindiston tarixida boburiylar davri. –T.: 2008. -163 bet.

birozginasini Go'ri Amirni ta'mirlashga sarflashgan. Ushbu dalilning o'ziyiq Boburning ajdodlari ota-bobolari temuriylarga o'zgacha mehr-muhabbat bilan qaraganliklaridan darak beradi.<sup>25</sup> Amir Temur va Zahiriddin Muhammad Bobur singari adolatli, xalqparvar, bunyodkor bobokalonlarimizni bizdan yeti, olti asrlik o'tmish ajratib turibdi. Amir Temur o'z yurtida tug'ilib, o'z vatanida vafot etdi. Zahiriddin Muhammad Bobur Andijonda tavallud topdi, biroq taqdir unga darbadarlik, muhojirlikning barcha azob-uqubatlari va mashaqqatlarini ro'baro' qildi. Hukmdor va ijodkor ona yurt mehri va Vatanini bir bor ko'rish orzusida armon bilan Hindistonda olamdan ko'z yumdi.

Amir Temurga ham, Zahiriddin Muhammad Boburga ham murakkab tarixiy sharoitda yashashga to'g'ri keldi. Amir Temur mo'g'ullar oyog'i ostida toptalgan Movarounnahrni ozod qilish, mustaqil davlat barpo etish uchun kurashlarga sho'ng'ib ketdi va o'z maqsadiga erishdi. Bobur Shayboniylardan o'nqlab bo'lmas harbiy zarbalarga to'qnash keldi va 21 yil Qobulda hukmdor bo'lib, muqim turib qoldi, u yurtiga qaytish yo'llari yopilganligiga ishonch hosil qilgach, o'z orzu-maqsadlarini Hindistonda amalga oshirish uchun 12 ming qo'shin bilan Ibrohim Lo'diyning 100 ming nafar qo'shini va 1000 ta jangovar filiga qarshi tavakkal qilib jangga kirdi. Taqdir uni yoqladi va raqibi ustidan porloq g'alabaga erishib, yangi davlatga asos soldi.

Amir Temur o'rta asrning eng buyuk hukmdori va sohibigina emas, balki bunyodkor podshoh nomi bilan tarix sahnasidan mustahkam o'rin oldi. U buyuk saltanatida, o'z vatanida mislsiz bunyodkorlik ishlarini amalga oshirib, adolatli, xalqparvar davlat rahbari, millat va yurt uchun qanday xizmat qilishi kerakligini amalda ko'rsatgan buyuk shaxsdir. Zahiriddin Muhammad Boburga taqdir begona yurtlarga podshohlik qilishni nasib etdi, muhojirlikda saltanat va davlat sohibi qay tariqa yo'l tutishi, zarur bo'lsa dushmanni do'stga aylantira bilishini, u faqat ezgu ishlar bilan band bo'lish kerakligini amalda isbotlay olgan, bu borada o'rnak osa arziydigan buyuk dahodir. Shuning uchun mustaqil Hindiston Respublikasining

---

<sup>25</sup> Berdimurodov A. Go'ri Amir maqbarasi. –T.: 1996. –B. 35.

birinchi hukumat rahbari Javaharlal Neru: “Bobur g’oyat sinchkov, zukko inson edi. Biz uni musofir kishi sifatida ba’zan noxolis fikrlar ham bildiradi deb o’ylasak, uni hikoyalari o’sha paytda Shimoliy Hindiston achinarli ahvolda ekanligidan dalolat beradi. Hindistonning birligi g’oyasi u uchun asosan umr bo’yi saqlandi... Bobur shu paytgacha o’tgan podshohlar ichida madaniy va dilbar shaxsdir. U diniy fanatizmdan uzoq, boshqalar kabi vayronagarchilik qilmadi. U gullar va bog’larni sevardi. Hindistonda turib, har doim o’z vatani O’rta Osiyoni eslardi”<sup>26</sup> – deb ulug’ bobokalonimizga yuksak baho bergandi. Ushbu samimiy va dilkash fikrlarni hind millati vakili tomonidan yozilayotganligining o’ziyoq buyuk vatandoshimizga bo’lgan mehr-muhabbatni, faxrlanish va g’ururni bizda yanada kuchaytiradi.

Xullas, boburiylar O’rta Osiyodan olis masofalarda joylashgan Hindistonda ajdodlari temuriylar saltanati qudratini tiklab, yangi saltanat barpo etishdek murakkab va qiyin vazifani uddalay oldilar. Ushbu sulola asoschisi Zahiriddin Muhammad Bobur shaxsiy hayoti va faoliyatida, dastlabki boburiy hukmdorlarning davlat boshqaruvida Amir Temur va temuriylar an’anasi yaqqol ko’zga tashlanadi. Shuningdek, ikki sulola asoschilarining shaxsiy xislatlari va hukmronlik diplomatiyasida juda ko’p qarashlar, mutanosibliklar mavjud. Bu esa yaratganning inoyatidek ko’rinadi. Bobur asos solgan davlat hind xalqlari hayotida o’chmas iz qoldirishida esa Sohibqiron Amir Temurning “Kuch adolatda!” degan davlatni boshqarishdagi asosiy tamoyili yo’lchi yulduz bo’ldi, desak xato qilmaymiz.

Zahiriddin Muhammad Boburning podshoh unvonini olishi esa o’sha davrda Xitoy hukmdorlari o’zlariga “fathur”, turk sultonlari “kaysar”, Eron safaviylari “shoh”, shayboniylar “sulton” unvonlarini olishgandi. Zahiriddin Muhammad Bobur ham o’z davlatining davlat arbobi sifatida 1507 yildan boshlab o’ziga “podshoh” unvonini oldi. Zahiriddin Muhammad Bobur, Humoyun, Akbarshohlar Movarounnahrdagi boshqaruv tartibini saqlab qolgandilar.

---

<sup>26</sup> Sayfiddin Jalil Bobur haqida o’ylar. -T.: 2006. –B. 46; 63.



### **1.3. Hindistonda boburiylar diplomatiyasi: shakllanish, qoida va tamoyillar**

Zahiriddin Muhammad Bobur va boburiy hukmdorlar “yashirin diplomatik vazifalar”ni bajargan, ayni paytda “neytral a’zo” bo’lib “diplomatik savdo” bilan shug’ullangan savdogarlardan ustamonlik bilan foydalanishgan. Ular saroyida maxsus elchilar ham bo’lgan. Boburiylar elchilikka aqlli, dono, so’zamol, notiq, farosatli, hozirjavob, obro’li, asl zotli shaxslarni tanlashgan.

Ular nazdida elchi gapga chechan, ishining ko’zini biladigan, latif, hukmdorga yoqadigan so’zlar topadigan, rasm-qoidani biladigan shaxslar edi. Xorij hukmdorlariga yoziladigan xatlar, diplomatik hujjatlar mohiyatini tahlil qila biladigan kishilar elchilik vazifasini bajargan. Podshohning hujjatlarga qo’yiladigan muhrlari besh xil toifaga bo’linib, turli maqsadlarda foydalanilgan. Shunday muhrlardan birinchisi lavozimlarga tayinlash uchun qo’yilsa, ikkinchisi esa xorijiy mamlakatlar davlat boshliqlariga yozilgan xatlar va boshqa diplomatik hujjatlarga qo’yilardi. “Bu muhrlar orasida eng muhimi uzuk muhrlar bo’lib, bu muhrlar eng ishonchli shaxslarda, ayrim shohlarning bu muhri ularning suyukli malikasida saqlanar edi”<sup>27</sup>-deb yozadi, tadqiqotchi Sotimjon Gafurov. Shoh Jahonning (1627-1658) muhri suyukli xotini Arjumand Bonu (Mumtoz Mahal)da saqlanganligi, xorijga yuboriladigan hujjatlarga uni bosish tartibi joriy etilganligi manbalarga qayd etilgan.

Elchilar xorijiy tillardan xabardor bo’lishlari, ulug’vorligi, farosatliligi, salobati, oliynasablik bilan birga xorijiy tillardan yaxshigina xabardorligi talab qilinardi. Zahiriddin Muhammad Bobur Hindistonni zarb etganidan so’ng, Agradan turib hatto Rossiya davlati bilan diplomatik munosabatlar o’rnatishga harakat qildi. U o’z elchilarini Movarounnahr va Eronga yo’llash bilan birga Rossiya davlatiga ham yubordi. Uning elchilari Janubiy Rossiyaning Kirjach va Murom o’lkalariga yetib borgan. Biroq, Rossiya markazi Moskvaga turli sabablarga ko’ra yetolmay ular 2-3 yil davomida o’sha joylarda muqim qolib ketishgan. Bobur elchilari madaniyatli, aql-farosatli, bilimli, dono kishilar bo’lganligidan ruslar o’rtasida obro’ qozonib, ular sharafiga elchilar to’xtagan joyni “Boburin”, “Boburiyu”, “Boburinskiy xutor”

---

<sup>27</sup> G’afurov S. Boburiylar saltanatida davlat boshqaruvi. –T.: O’zbekiston, 2011. –B. 16-17.

nomlari bilan atash rasm bo'lgan. Shuningdek, o'tgan asrning 60 yillariga qadar Kirjach va Muromda Bobur elchilari sharafiga mahaliy aholi o'z farzandlariga "Boburin"- deb nom qo'yganlar.<sup>28</sup>

Rus tarixchi N.Karamzin rus sayyohi, "Uch dengiz osha sayohat" kitobi muallifi Afanasiy Nikitinni 1466-1471 yillarda Hindistonga bo'lganligini qayd qilgan ekan, Vasko da Gama Hindiston haqida endigina fikrlab yurganida bizning tverlik Afanasiy Malabara qirg'oqlarida sayohat qilardi" - deb yozadi. Rus savdogarlari Matvey, Akim Kalitinlar Bobur, Humoyun va Akbar saroyida bo'lganlar. Matvey Kalitin Humoyunga Moskvadan samur po'stin, ovchi qarchig'ay olib kelib sovg'a qilgan.

Ingliz olimi V.Smitning "Akbar" kitobida bitta rus oilasi portugal missonerlari kemasida Hindistondan jo'nab ketganligi haqida ma'lumot keltiriladi. Uning ismi "Usto Parmon" deb qayd etilsada, aslida "Paramon" bo'lgan.<sup>29</sup> Akbarshoh diniy bag'rikenglik (tolerantlik) siyosatini yuritib, barcha namozxonlar uchun (budda, nasroniy, musulmon, braxman, shomon) yagona "E'tiqod uyi"ni Fatxipur Sikri shahrida qurdirgan edi. U "Olloh" barcha e'tiqoddagilar uchun yagona, faqat turli tillarda nomi turlicha talqin etiladi, deb hisoblardi. Insoniy tamoyillarni hammasidan baland qo'ygan Akbarshoh "Sulhi kull" siyosatini yuritgandi. Bunday diplomatiya o'z vaqtida ilg'or fikrli shaxslar tomonidan qo'llab-quvvatlangandi.

Boburiylar diplomatsiyasida Qur'oni karimda bayon qilingan "Elchiga o'lim yo'q, sovchiga o'lim yo'q!" qoidasiga amal qilishardi. Agar elchi bir-biriga notanish bo'lgan davlatlarni yaqin do'st qilishda vositachi bo'lsa, sovchi biri ikkinchisidan uzoq bo'lgan xonadonlarni o'zaro qavm-qarindosh qiladi. Elchilarning daxlsizligi, ularni taqib qilmaslik, qamab qo'ymaslik, elchiga bosim o'tkazmaslik prinsiplariga amal qilingan. Elchi o'z hukmdori so'zlarini yetkazadi, bu fikrlar boshqa hukmdorga ma'qul kelmasa, elchi aybdor emas, deb hisoblanardi. Imkon qadar boshqa davlatlar bilan munosabatlarda harbiy to'qnashuvsiz murosa yo'lini tutishga harakat qilingan.

---

<sup>28</sup> Антонова К.А. Очерки общественных отношений и политического строя монгольской империи Акбара (1556-1605 гг.) – М.: Изд. АН СССР. 1952. -87 стр.

<sup>29</sup> Pirimqul Qodirov. Avlodlar dovoni. –Т.: 1989. –В.215

Ushbu qoida Sohibqiron Amir Temur o'g'itlaridagi: "Qaysi ishni chora-tadbir bilan bitirish iloji bo'lsa, unda qilich ishlatmadim"<sup>30</sup>- degan dono fikrlar bilan hamohang hisoblanadi.

Boburiylar davlat boshqaruvida saroy ahlini guruhlarga bo'lish tamoyilini qo'llashgan. Tarixchi Xondamirning bayonicha Humoyunshoh (1530-1540; 1555-1556) hukmronligi davrida boshqarish ishlari uch guruh saroy ahli qo'lida mujassamlangan.

1. Ahli davlat. Ular harbiy boshliqlar bo'lib, bularni Hindubek boshqarqan. U harbiylarga maosh belgilash, saroyda qorovul va xizmatchilar tayinlashda birinchi maslahatchi bo'lgan.

2. Ahli saodat (baxt ahllari) bo'lib, ularga qozi, shayxulislom, ulamo, olim, shoir va boshqa ziyolilar kirgan.

3. Ahli murod. Hokimiyat a'zolarining vaqtini xushlovchi qo'shiqchi va xonandalar, raqqoslar kirgan.

Ma'muriy ishlar esa 4 muassasa qo'lida to'plangan:

1. "Olov"- harbiy ishlarni boshqargan;
2. "Havo"- davlatning saroy ishlariga bosh bo'lgan;
3. "Suv"-hokimiyatni may, oziq-ovqat, maishiy ta'minotini boshqargan;
4. "Yer"- yer va jamoat ishlarini boshqargan.<sup>31</sup>

Xorijga yuboriladigan elchilar esa, davlat boshqaruv idoralarida faoliyat yuritayotgan qobiliyatli, so'zamol, savodli, topqir, har qanday vaziyatdan chiqa oladigan kishilardan tanlangan.

O'rta asrlar davri diplomatsiyasi tarixini tadqiq qilishda qimmatbaho javohirlar, ayniqsa noyob hisoblangan oltin, kumush, olmosdan yasalgan zargarlik buyumlarining ham davlatlararo munosabatlardagi ahamiyati katta. Ular bizga o'z davri tarixi haqida xabar beribgina qolmay, hunarmandchilik buyumi, san'at asari, hatto siyosat haqida ham boy ma'lumotlar berishi mumkin. Shu sababli o'tmishda, xususan qadimgi va o'rta asr hukmdorlari oltin va kumush yombilar, buyum va

---

<sup>30</sup> Amir Temur o'g'itlari. -T.: 1992. -B.28

<sup>31</sup> E.Ro'ziyev. Hindistonda Shershoh davlati. Toshkent. Fan; 1992, -B 19.

taqinchoqlarni o'z xazinalarida imkon qadar ko'proq to'plaganligi, olmos (la'l, lojuvard)ga ishlov berish natijasida yasalgan gavhar yoki yoqut toshlarini tojlariga taqib yurganligi, kiyim va jang qurollariga qadab qo'yganligini qayd qilib o'tish o'rinli bo'lardi. Jahongirlikka davo qilgan shoh va sultonlar "Zari borning zo'ri bor!" naqlidan kelib chiqib, boylik va kuch-qudratlarini mustahkamlash, boshqa mamlakatlarga ta'sir o'tkazish maqsadida qimmatbaho toshlarni o'lja qilib olishardi. Ular o'zaro savdo-sotiq qilish va tinchlikda yashashga qaratilgan shartnoma va bitimlar imzolash marosimida ham bir-birlariga o'z elchilari orqali egarli otlar, oltin dastali qilichlar, javohirlar hadya qilishgan. Bu esa saltanatlar kuch-qudrati va do'stligining ramzi bo'lgan.

Boburiylar ajdodi Amir Temur ham o'zining uzoq yillar davom etgan zafarli harbiy yurishlarida ko'pgina o'lkalardan olmos, oltin, kumushdan yasalgan qimmatbaho zargarlik buyumlarini o'lja sifatida saltanati poytaxti Samarqandga olib kelib, ularni to'plagan.

G'arb va Sharqning sayyoh va elchilari Amir Temur huzuriga tashrif buyurganlarida ushbu javohirlar ko'z-ko'z qilinardi. Bir qator tarixiy adabiyotlarda Sohibqironning Samarqanddagi "25 ming noyob javohirlari" haqidagi fikrlar uchraydi.

Amir Temur poytaxti Samarqandda bo'lgan Leon va Kastiliya (Ispaniya) elchisi R.G.Klavixo "Temurbek saroyiga sayohat "Kundaligi"da amir qarorgohida o'z ko'zi bilan ko'rgan oltin sandiqni va qimmatbaho zargarlik buyumlarini quyidagicha tasvirlaydi. "Uning (sandiqlik) yalpoq qopqog'i yashil va ko'k minoemaldan ishlangan kichik kubbalari, naqadar noyob javohir va injular bilan ziynatlangan. Bu sandiqning qopqog'i eshikka o'xshash, ichida bir necha qator qadahlar terilgan, durlar va juda qimmatli toshlar bilan bezatilgan, olti dona oltin yonbi ham bor edi. Bu sandiqning yonida balandligi bir metrcha keladigan oltin xontaxta bor, uning atrofi javohir bilan bezatilgan. Uning ro'parasida emal shaklida yasalgan bir oldin daraxt, uning yo'g'onligi inson oyog'i yo'g'onligida, atrofga yoyilgan shoxlari yashil bilan qoplangan. Bu daraxt mevalari o'rnida juda ko'p qizil yoqut, zabarjad, feruza, safir va ajoyib yirik durlar shoxlariga osilgan, yaproqlari

turli rangdagi mino emal ishlangan, butoqlarida oltin qushlar bor”.<sup>32</sup> Ispan elchisi ma'lumotidan ayon bo'ladiki, Amir Temur biz yuqorida qayd qilgan 25 ming javohirlarini “oltin daraxt” holatida bir joyga to'plagan. Ushbu noyob toshlar orasida ko'plab tarixiy voqealarning guvohi bo'lgan va g'aroyib sarguzashtlarni boshidan kechirgan. “Chirog'i olam” (G'arbda “Buyuk Amir Temur yoquti”) “Ko'hinur va Samoyinur”, “Shoh yoquti” kabi o'ta noyob, yuksak qadrlangan ko'plab javohirlar ham bo'lishgan.

Ushbu javohirlardan “Chirogi olam” kichik uchta yoqut, bir qancha yirik dur va zumradlar qadab yasalgan san'at asari bo'lib uning vazni 361 karat (1 karat -0,2 gramm) undan ajoyib taqinchoq yasalgan.<sup>33</sup>

“Ko'hinur” va “Samoyinur” kabilarning ta'rifi haqida esa adabiyotlarda juda ko'p ma'lumotlar beriladi. Amir Temur vafotiga qadar uning javohirlari Ko'ksaroy va Bo'stonsaroyning ko'rki bo'lib turdi. Sohibqiron o'limidan so'ng taxt uchun Amir Temurning o'gil va nevaralari o'rtasidagi ayovsiz janglar oqibatida Samarqand bir necha bor qo'ldan-qo'lga o'tdi. Taxtni egallagan har bir Temuriyzoda o'z qo'lga tushgan noyob toshlardan turli maqsadlarda foydalandi. “Chirog'i olam”ni Sohibqiron 1398-1399 yilning qishida “Hindiston g'azovoti” davrida qo'lga kiritgan edi. Yoqut 1409 yilda Samarqand taxtini egallagan o'g'li Shohrux Mirzo (1376-1447) qo'lga o'tdi. U bu noyob toshni 15 yashar o'g'li Mirzo Ulug'bekka topshirdi. Mirzo Ulug'bek o'limidan so'ng bu javohir 1599 yilga qadar goh temuriylar, goh shayboniylar orasida qo'ldan-qo'lga o'tib turdi. Ashtarxoniylardan Valimuhammad (1605-1611 yillar hukmronlik qilgan) “Chirog'i olam” ning egasi bo'lib qoldi. U 1611 yilda yoqutni Eron va Ozarbarjon shohi Abbas Safaviyga sovg'a qildi. Safaviy hukmdori esa “chirog'i olam” ni hind podshohi Muhammad Jahongirshohga sovg'a qildi. 1739 yilda Hindiston poytaxti Dehlini egallagan Eron hukmdori Nodirshoh Afshar “Chirog'i olam”ni navbatdagi egasi bo'ldi.

---

<sup>32</sup> Vamberi, Herman. Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi. Kitobdan parchalar /to'pl. S.Ahmad / -T.: Adabiyot va san'at nashriyoti; 1990. –B. 49-50.

<sup>33</sup> Ozod Mo'min. Amir Temurning yoquti. // Sharq yulduzi. 1991. № 10. –B. 142.

1747 yilda Nodirshoh vafot etib, ushbu javohirni afg'on sarkardasi Ahmadshoh Durroniy qo'lga kiritdi.

1800 yilda Ahmadshohning o'g'li Temurshoh ukasi Muhammad bilan taxt talashib, avval Shuja-al-Mulk oldiga, keyin esa hind singhlari hukmdori Ranjit Singhdan panohtalab bordi. "Chirog'i olam", "Ko'hinur" olmoslari dastlab Shuja-al-Mulk, 1813 yildan esa Ranjit Singhga tegishli bo'lib qoldi.

Bu davrda inglizlar Hindistonni istilo qila boshlagan edilar. Angliyaning Ost-Indiya savdo kompaniyasi harbiylari 1849 yilda Panjob markazi Lohurni egallab Ranjit Singhni o'g'li, 12 yashar Dalib Singh qo'lidan Amir Temurning ikki javohirini olib qo'ydilar. 1851 yilda Angliya poytaxti Londonda namoyish qilingan "Chirog'i olam" va "Ko'hinur" olmosi Buyuk Britaniyadagi muzeylarda noyob javohirlar qatoridan abadiy o'rin oldi. Boburiylar Amir Temur javohirlaridan "Ko'hinur" olmosini o'z qo'lida saqlab qoldi.

Amir Temur javohirlaridan biri "Samoyinur"ning temuriylar (keyinchalik boburiylar) qo'lidan ketib Eron va Rossiyaga borib qolish tarixi ham g'aroyibdir.

Ma'lumki, Zahiriddin Muhammad Bobur (1483-1530) vafotidan so'ng Hindiston taxti uning katta o'g'li Humoyun Mirzoga o'tdi. Humoyun Mirzo (1530-1540, 1555-1556) taxt uchun kurashlarda afg'onlarning sur qabilasidan bo'lgan Shershoh Suriy bilan ikki marta jangga kirib undan yengiladi. Chausa (1539 yil, 27 iyun) va Kanavuj (1540-yil, 12 may) janglarida butunlay mag'lubiyatga uchragan Humoyun madad surab Eron hukmdori Shoh Ismoilning o'g'li Tahmasp huzuriga qochib boradi. U Tahmasp oldiga nochor holda oilasi, qavm-qarindoshlari bilan, keksa bir tuyada borgan edi. Tahmasp undan "Ko'hinur" olmosini talab qildi. Humoyun otasidan yodgorlik bo'lgan ushbu olmosni o'rniga "Samoyinur"ni Tahmaspga peshkash qildi. Shunday qilib hukmdorlik qudrati ramzi bo'lgan boburiylar javohiridan biri safaviy hukmdor qo'lga o'tdi. Humoyun Tahmasp bilan diplomatik munosabatlarga kirishib, uning yordamida 1555 yilda, 15 yildan so'ng otasi taxtini Shershoh Suriydan qaytarib oldi.<sup>34</sup>

---

<sup>34</sup> Ro'ziyev E. Hindistonda Shershoh davlati. –T.: Fan; 1992. -31 bet.

Boburiylar diplomatsiyasida “neytral diplomatlar” hisoblangan savdogarlar bilan kitob savdosida ishtirok qilish, yoxud elchilar orqali nodir kitoblar almashish muhim rol o’ynagan. Ingliz boburshunos olimi V.Smitning “Akbar” kitobida rus savdogarlari Matvey Kalitin va uning o’g’li Akim Kalitinning hukmdor Akbarshoh o’rtasida kitob almashinuvi, sovg’a-salomi haqida ma’lumot keltiriladi. Humoyun va Akbarshoh saroyida bo’lgan ota-o’g’il o’zlari bilan nodir qo’lyozma kitoblarni olib kelganligi haqida fikr bildirilar ekan, Akim Kalitin “Apostol” kitobini shoh Akbarga sovg’a qilgan<sup>35</sup>.

Akbarshohning saroy tarixchisi Abulfayz Ollomiy o’zining “Oyinai Akbarshoh” (Akbarshoh tarixi) nomli kitobida Akbarshoh saroyi kutubxona mudiri (darbor) yuzlab elchi va savdogarlardan kitoblar qabul qilib olganligi, yoxud sotib olganligini bayon qiladi.

Akbarshoh Movarounnahr savdogarlari biridan Sohibqiron Amir Temur hayoti va faoliyatiga bag’ishlangan Sharafiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” asari qo’lyozmasini 3 ming rupiyga xarid qilib olgan. Ushbu asar “Sharq Rafaeli” nomini olgan mashhur rassom Kamoliddin Behzodning tomonidan chizilgan 8 ta rasm bilan bezatilgan. Boshqa bir Movarounnahrlik savdogar Farruxbek Hiloliyning “Sifatul Oshiqun” (“Oshiqlarning fazilatlarini”) nomli kitobini Akbarshohga 1945 rupiyga pullagan.<sup>36</sup> Ushbu nodir kitoblar xazina mablag’idan olingan bo’lib, o’sha paytda 1 juft atlas 10 rupiy, 1 qop bug’doy 3-4 rupiy, 1 ta qo’y 7 rupiy ekanligini hisobga olsak sotib olingan kitoblar narxi o’ta baland edi. Akbarshoh kutubxonasida xushbo’y sandal yog’ochidan yasalgan qutichalar va jovonlarda 20 mingdan ortiq nodir kitoblar saqlanganligi manbalarda keltiriladi.<sup>37</sup>

Akbarshohning vorisi Nuriddin Jahongir (Salim) (1609-1627) “Tuzuki Jahongiriy” asarida elchilardan ko’plab kitoblar, Movarounnahr, Eron, Afg’onistondan keltirilgan qo’lyozma asarlar qabul qilib olganligini yozadi. Unga boshqa yurtlarning hukmdorlari Amir Temur haqidagi kitoblarni, shuningdek, ulug’

---

<sup>35</sup> Азимжоновна С. Государство Бабур в Кабуле и в Индии. –М.: Наука. 1977. -215 стр.

<sup>36</sup> Qudratilloev H. Boburning davlatchilik siyosati va diplomatiyasi. –T.: Sharq; 2011. -218.

<sup>37</sup> Pirmqul Qodirov. Avlodlar dovoni (Akbar). Tarixiy roman. –T.: 1989. –B. 380-381.

bobokaloni qiyofasi chizilgan suratlar yuborishgan. “Tuzuki Jahongiriy”da: “Maskur oying oltisida (1621 yil) Muhribxon (hukmdorlardan biri) menga bir surat yuboribdirkim, farangiyalar fikriga ko’ra bu surat hazrat Sohibqiron (Amir Temur)ning suratidir. Yildirim Boyazid ul zotning muzaffar lashkari qo’liga tushganda Istambulning o’sha zamondagi hokimi bo’lgan bir nasroniy o’z elchilarini tuhfa va hadyalar bilan hazrat Sohibqiron dargohiga yuborib, itoatkorlik bilan xizmatkorlik maylini izhor etgan. Elchi bilan hamroh qilib yuborilgan bir musavvir ul hazratning suratini chizgan va Istanbulga olib borgan. Agar bu da’vo haqiqat bo’lsa men uchun hech bir tuhfa bundan aziz bo’lmas. (Biroq) silsila farzandlari va avlodi tashqi ko’rinishini va suratiga nisbatan hazratning bu tasviri o’xshashga ega bo’lmaganiga sabab (maskur surat bobidagi) so’zlarining rostligi xususida xotiramiz desam bo’lmadi” - kabi fikrlarni o’qiymiz.

Xullas, ma’rifatli, mohir diplomat hukmdorlar faoliyatida kitob va ma’naviyat namunalari muhim rol o’ynagan.

Ushbu bobga xulosa sifatida quyidagilarni qayd etish mumkin:

Boburiylarning diplomatsiyasi uzoq Hindistonda turli-tuman etnik guruhlar va diniy konfessiyalar mavjud bo’lgan murakkab tarixiy sharoitda shakllangan edi. Shu sababli o’zlariga dushman bo’lgan “maratx”, “singh” kabi oqimlar bilan murosa-madora yo’lini tutish, qudratli, markazlashgan davlat barpo etish oson kechmadi.

Zahiriddin Muhammad Bobur va uning vorislari xorij savdogar va elchilarga o’z mamlakatlari tasarrufiga erkin kirib chiqishlari uchun tegishli shart-sharoitlar yaratishdi. Chet ellik diplomatlar uchun bekatlarda poytaxt Agraga tez yetib kelishlari maqsadida 30, 50, 100, 200 tagacha chopqir otlar, aravalar tayyorlab qo’yildi. Mamlakatni poytaxt va yirik shaharlar bilan bog’lovchi yo’llar ustida musofirxonalar tashkil etilib, aholi ularni oziq-ovqat va suv bilan ta’minladi. O’zga davlat elchilariga xazinadan mablag’ ajratilib, ularni kundalik hayoti va yashash joylari qat’iy nazorat ostida bo’ldi.

Boburiy hukmdorlar diplomatsiyasida o’z davrining “demokratik” prinsiplariga amal qilinganiga guvoh bo’lamiz. Avvalo, elchilarga izzat-hurmat



ko'rsatish, boshqa davlatlar bilan tuzilgan bitimga qat'iy amal qilish, qaysi hukmdorga xat yozilsa, o'shaning kayfiyatiga mos so'zlar topish, bilimdon, topqir shaxslarni elchi qilib yuborish, xushmuomalali bo'lish, lutf ko'rsatish, siyosiy jarayonlarga ehtiyotkorlik bilan yondashish kabilar birinchi darajali bo'lgan.

Xullas, boburiy hukmdorlar diplomatsiyasi o'z davri doirasidan chiqib, ko'pgina tamoyillar hozirgi zamon bilan uyg'un keladi.

## **II BOB. BOBURIY HUKMDORLARNING QO'SHNI DAVLATLAR BILAN O'ZARO ELCHILIK VA DIPLOMATIK ALOQALARI**

### **2.1. Hindistonda markazlashgan davlat barpo etish uchun kurash**

Zahiriddin Muhammad Bobur Hindistonga harbiy yurish qilar ekan, o'z yurtida yirik davlat qurish orzu-istaklarini sharqning mo'jizakor ushbu mamlakatida amalga oshirish uchun kurash maydoniga kirgan edi. Unda har bir soatdan maqsadga muvofiq foydalanish, raqiblar o'rtasidagi qarama-qarshilikdan ustamonlik bilan chora qo'llash, shaxsan o'zi ishtirok etgan tarixiy voqealarni oldindan his etishdek noyob qobiliyat, diplomatik salohiyat bor ediki, bu barcha sarkardalarda ham uchramaydi. Qadimgi Rim tarixidan ma'lumki, mashhur Karfagen (Puni) armiyasining harbiy qo'mondoni Gannibal qadimgi dunyoning eng katta urushi bo'lgan II Puni urushi davrida (mil. av. 218-201 yy.) 90 ming sonly qo'shini bilan Alp tog'larining eng qalin qor bosgan cho'qqilari orqali oshib o'tib Italiyaga hujum qiladi. Gannibal bu dovonlardan oshar ekan 70 ming kishisidan ajralib, 20 ming askari qoladi. Ammo bu tarixiy voqeani Gannibal biror joyga yozdirib qo'yishni xayoliga ham keltirmagan edi. Oradan 1700 yil o'tib Zahiriddin Muhammad Bobur ham Hindiston sari yurishda xuddi shunday jasorat ko'rsatdi. U Himolay tog'larining abadiy qor bosib yotgan "Bandipach" dovonidan oshib o'tib, shimoliy Hindistonga kirdi. Bobur bu haqda sangtarosh Shomuhammadga bu voqea haqida toshga o'yib yozib qo'yishni buyurdi. Ushbu voqea orqali Boburning Hindistonga safar yo'li haqida tarixda guvohlikka ega bo'lindi. Keyinchalik bu tog' yo'li mashhur "Haybar dovoni" nomini olib, Avg'oniston-Pokiston-Hindiston o'rtasidagi yagona savdo yo'li bo'lib qolgandi.<sup>38</sup>

Zahiriddin Muhammad Bobur Ibrohim Lo'diy ustidan g'alabaga erishar ekan, Panipat qal'asi devorida 2 ta navkarini ikki qo'lida ko'tarib yugurib ketadi. Ushbu dalil hukmdorning jismonan kuchli bo'ganligidan dalolat beradi. Bobur Boburnomada Shimoliy Hindistondagi o'sha paytdagi aftoda holatni quyidagicha tasvirlaydi: "Hinduston kam latofat yer voqe bo'lubtur. Elida husn yo'q va husni

---

<sup>38</sup> Sayfiddin Jalil Bobur haqida o'ylar. -T.: Sharq, 2006. -B. 53.

ixtilot va omizish va omadu raft yo‘q, tab’ va idrok va adab yo‘q va karam va muruvvat yo‘q va hunarlarida va ishlarida siyoq va andom va raja va go‘niya yo‘q va yaxshi ot va yaxshi it yo‘q va uzum va qovun va yaxshi mevalar yo‘q va yax yo‘q va sovuq suv yo‘q va bozorlarida yaxshi osh va yaxshi non yo‘q, hammom yo‘q va madrasa yo‘q va sha‘m yo‘q va mash‘al yo‘q, shamdon yo‘q”.<sup>39</sup>

Yuqoridagi fikrlar shuni isbotlaydiki, Zahiriddin Muhammad Bobur Hindistonga kirganida bu mamlakat o‘zaro feodal urushlar tufayli aftoda bo‘lgan, xalq qashshoq, shahar va qishloqlar ayanchli ahvolda bo‘lgan. Uning tarixiy voqelikni obyektiv baholay olganligini e‘tirof etgan Hindiston birinchi bosh vaziri Javaharlal Neru (1889-1964) o‘zining “Jahon tarixiga bir nazar” (“Взгляд на всемирную историю”) kitobining 3-tomida: “Boburshoh sinchkov, zukko inson edi. Biz unga musofir kishi sifatida ba‘zan noxolis fikrlar ham bildiradi deb o‘ylasak, uning hikoyalari o‘sha paytda Shimoliy Hindiston achinarli ahvolda ekanligidan dalolat beradi. Hindistonning birinchi g‘oyasi u uchun azaliy umr bo‘yi saqlaydi”<sup>40</sup> – kabi xolis fikrlarni keltirgan.

Hindiston tabiati, aholisi, tarixi, madaniyati va boyliklari bilan yaqindan tanishgan Bobur keyinchalik bu davlat haqida: “Latofatikim Hindistonda bir ulug‘ viloyatdir va oltin va yarmog‘i qalin bo‘lur, yana bir latofati budurkim har sinfdin va xirfalardin behad va benihoya ko‘pdur. Har ish va har nima uchun jami muqarrardur”.<sup>41</sup> Zahiriddin Muhammad Bobur Hindistonda turli-tuman etnik guruh, qabila va xalqlarga duch keldi. Mamlakat shimoliy-g‘arbida pushtun, Kashmir, sindx, panjobiylar, g‘arbiy Hindistonda maratx va gujaratlar, Sharqiy Hindistonda bangal, oriy, assamlar, Janubda andxar, malayali, jamil, kannarlar, Ganga daryosi havzasida rajiston, hindistoniy, bixar qabilalari istiqomat qilar edi. Bu xalqlarning dini va urf-odatlarida farqlar juda katta bo‘lib, ular o‘rtasida dishmanlik kayfiyati ham kuchli bo‘lgan. Zahiriddin Muhammad Bobur diplomatiyasining asosiy yo‘nalishi Hindistonni birlashtirish, bu yerda hukm surib kelayotgan diniy-etnik,

---

<sup>39</sup> Z.M.Bobur. Boburnoma. –T. Yulduzcha, 1990. –B.182.

<sup>40</sup> Qudratillayev H. Hindistonda Boburiylar sulolasi saltanati. –T. O‘qituvchi, 1996. -144.

<sup>41</sup> Z.M.Bobur. Boburnoma. –T. Yulduzcha, 1990. –B.321.

siyosiy ziddiyatlarni bartaraf etish, shavqatsiz odatlar (tul qolgan ayolni o'z eri bilan gulxanda tiriklayin yondirish kabi)ni bekor qilish, qudratli markazlashgan davlar barpo qilish edi. Yangi zamon boshlarida Hindistonda taxminan 150 mln aholi istiqomat qilardi.

Boburiylar avvalboshdanoq Hindistonda jangovor qabilalar hisoblangan skix va maratxlar qarshiligiga uchradi. Skixlar Panjob va boshqa viloyatlardan “kelgindilar”ni haydab chiqarish uchun jon-jahdlari bilan kurashdi.

Skixlar<sup>42</sup> harakati XV asr o'rtalaridan XVIII asr 60 yillariga qadar davom etib turdi. Boburiylarga qarshi chiqqan toifalardan biri maratxlar bo'lib, maratxlar o'z yurtini “Maxarashtra” deb atashardi. Ularning yo'lboshchisi Shivadish (1627-1680) bo'lib, maratxlar boburiy hukmdorlarning kelishuvchilik diplomatiyasi bilan murosaga kelmadilar. Boburiylar ular qo'zg'olonini bir necha bor bostirib, yer-mulkini jagirdor (ijarachilarga) bo'lib berdi. Aslida boburiylar davlatining markazlashtirish siyosatiga Humoyun davridayoq xavf tug'ilgan edi. Zahiriddin Muhammad Bobur Chingizxon (1156-1227) va Sohibqiron Amir Temur (1336-1405) larning ulusizm an'anasidan kelib chiqib o'z davlatini farzandlariga bo'lib bergandi. Jumladan, Hindiston yerlari Humoyunga, Panjob - Mirzo Kamronga, Qandahor – Mirzo Askariyga, Badaxshon – Mirzo Hindolga suyulg'or qilib qoldirilgandi. Humoyunning Hindistonni birlashtirish siyosatiga ukalari Kamron Mirzo va Askariy Mirzolar qarshi chiqib, ular o'rtasida bir necha bor harbiy to'qnashuvlar bo'lib o'tgandi. Janglarda yopilgan bu ishni aka-uka tovba qilib qasam ichishar, biroq ko'p o'tmay o'z qasamlarini unutishardi. Shu sababli saroy a'yonlari va amaldorlari talabi bilan Humoyun Mirzo ukasi Kamron Mirzoning ko'ziga mil torttirgandi. Bir umr ko'r bo'lib qolgan Kamron Mirzoni ko'rganida Humoyun

---

<sup>42</sup> Skixlar harakati aslida XV asr 2-yarmida vujudga kelib, skix diniy oqimi asoschisi Nanak (1469-1538) edi. Skixlar rahbari guru-o'qituvchi hisoblanib, skix so'zi tarjimasi esa o'quvchi ma'nosini ifodalagan. Ular Hindistondagi kastachilikni keskin qoralab, Xudo olgiga barchaning tengligini e'lon qildilar. Hindi va musulmonlarni ittifoq tuzib kelgindilarni haydash ishlarini ilgari surdilar. O'ninchi guru Goveshd Singx davlatni skixlar jamoasi - xalsega berishni talab qildi. Umen mo'g'ullar (boburiylar) zulmidan mamlakatni ozod qilib, “hokimiyatni Lahordan Peshovargacha skixlar jamoasiga beraman” – degandi. Ular boshqalardan ajralib turish uchun uzun soch, uzun soqol o'stirgan. O'zlari bilan 3 ta metal buyum: groben, braslet, xanjar olib yurishgan. Skix yo'lboshchilari “singx” taxallusini olib, u “sher” (kesari) ma'nosini bergan. Dehqon va hunarmandlar tabaqasini birlashtirgan skixlar rahbari Banda boburiylarga qarshi qo'zg'olonda yengildi, qatl etildi. Ular 1765 yilda Panjobda ular hokimiyati o'rnatildi.

Mirzo qilgan ishidan pushaymon qilar, u tabiatan otasi singari ko'ngilchan, qarindoshlariga mehribonligi tufayli vijdoni oldida qiynalardi. Humoyun Mirzo o'ta ko'ngilchanligi tufayli saroy to'ntarishi paytida hayotini saqlab qolgan oddiy Nizom eshkakchiga o'n kun taxtini hadya etgan, bu nodon va mulkparast esa taxtni egasi bo'lgan kunlarda butun davlat xazinasini talon-taroj qilib, o'z qarindoshlariga bo'lib bergandi.

Humoyun Mirzo hukmronligi davrida Hindiston taxti 1540-1555 yillarda (15 yil davomida boburiylar qo'lidab ketib, afg'on turkiylaridan "suriylar" qo'lga o'tishida yuqorida qayd etilgan voqealar o'z salbiy ta'sirini ko'rsatgandi. "Suriylar" Ibrohim Lo'diy (1489-1526) hukmronligi yillarida Afg'onistondan Hindistonga ko'chib yer-mulk olgan edilar. Ibrohim Suriy va o'g'li Hasanxon Suriylar Shimoliy Hindistonda katta yer-mulkka ega bo'lib, harbiy otryad tuzdilar. Hasanxon Suriydan Bahlul Lo'diy (Ibrohim Lo'diyning otasi) hukmronligi oxirgi yillarida Sahsaromda Shershoh Suriy tug'ilgan.<sup>43</sup>

Shershoh Suriy boburiylar xizmatida bo'lib, ular ichki va tashqi siyosatni atroflicha o'rgangan. U: "Boburiylarda hamisha adovat bor, ba'zi amaldorlar manmanlikka mukkasidan ketgan. Amaldorlar esa o'z navbatida poraxo'rlikka berilib ketganlar. Har qaysi kishi, u xoh oddiy harbiy xizmatchi bo'lsin, xoh kichik yer egasi, xoh zamindor bo'lsin o'zlarining har qanday ishlarini pora orqali bajarishi mumkin. Kimki puli bo'lmasa u haqiqatga erisha olmaydi. Ular boylik oldida kim do'st, kim dushman buning farqiga borishmaydi. Men afg'onlarni birlashtirib "mo'g'ullar" (boburiylar) nizolaridan foydalanaman"<sup>44</sup> – degandi.

Shershoh Suriy Devoni Oliy, Devoni Mustafiy (moliya), devoni xos, harbiy idora muassasalari orqali davlatni boshqardi. U tangalar zarb qildi, soliqlarni tartibga soldi, poraxo'rlikka qarshi kurashdi. Biroq, o'g'li Ismoil uning o'limidan so'ng

---

<sup>43</sup> Shershohning asl ismi Farid bo'lib, tug'ilgan yili manbalarda uchramaydi. U bolaligida madaniyat markazi Javundur shahrida ta'lim oldi. Fors tili va arab tillarini mukammal o'rgandi. Adabiyot bilan qiziqib, Qozi Shahobuddinining "Qofiya" Asari, Nizomiyning "Iskandarnoma" hamda Sa'diyning "Guliston" va "Bo'ston" asarlarini o'qib qo'rgangan. Otasi yerlariga boshdorug'a bo'lgan. U Agraga kelib Z.M.Bobur bilan uchrashgan. Bobur u bilan suhbat qurib, o'g'illariga bizni davlatga xavf tug'ilsa Shershohdan tug'iladi, degan. Bixor viloyati hukmdori Mahmud Bixoriy xizmatiga kirib, undan botirligi tufayli "Sherxon" taxallusini olgan. 1539-1540 yillardagi ikki jang (Chausa va Kanavuj) dan so'ng Humoyunni yengib Agrani oladi. Shershoh davlatiga asos soldi.

<sup>44</sup> Ro'ziyev E. Shershoh Suriy davlati. – T.: Fan. 1992. – B. 7

davlat siyosati tizginini ushlab tura olmadi. Shershoh Suriyning yer-soliq siyosati, ma'muriy islohotlari Hindiston tarixida sezilarli iz qoldirdi.

Akbarshoh (1556-1609) Shimoliy va Markaziy Hindistonni birlashtirishda mohirona diplomatik siyosat yuritdi. U Hindistondagi 28 ta rojaning (kyaz) yerlarini egalladi. Ularning ko'pchiligini jang bilan emas, aksincha, diplomatik muzokaralar orqali qo'lga oldi. Hind rojalari bilan "nikoh diplomatiyasi"ga kirishib, ular qizlariga diniy tafovutga qaramay qavm-qarindoshchilik munosabatlariga kirishdi. Malv, Kashmir, Bangal rojaliklarini O'z davlati tarkibiga kiritar ekan "sulhi qull" siyosatidan ustamonlik bilan foydalandi.

Akbarshoh hind rojalaridan birining qizi Jodha Bayga uylanib, undan Salim (Nuriddin Jahongir) dunyoga keldi. Rojaliklardagi mulklarni ularning o'zlarida qoldirib, markaziy davlatga itoatda bo'lish shartini ilgari surganligi "sulhi kull" siyosati orqali barcha dindoshlar uchun "E'tiqod uyi"ni qurdirish orqali o'z imkoniyatlarini kuchaytirdi.

Bobokaloni Zahiriddin Muhammad Bobur bu sohadagi islohotni boshlab berib, 1529 yilda, ya'ni, o'limidan oldin ikkita muhim farmonga imzo chekkan edi. Birinchi farmoni "Har qanday diniy tafovutlarni bartaraf etish to'g'risida" bo'lsa, ikkinchi farmoni esa spirtli ichimliklar iste'molini ta'qiqlash haqida bo'lgandi.<sup>45</sup> Boburiy hukmdorlar o'rtasida o'zaro ziddiyatlar va taxt uchun kurashlar bo'lmadi, degan da'vodan yiroqmiz. So'nggi mustaqil hukmdor Avrangzeb (1658-1707) otasi Shoh Jahon vafotidan oldin taxt uchun kurashlar maydoniga kirgan edi. U to'ng'ich akasi Doro Shukuh va uning farzandi Sulaymonni hibsga olib, taxtga da'vo qilmasin deb, zaharlab o'ldirtiradi.<sup>46</sup> Avrangzebning Dilrasbonu qizidan Dehlida zamonasining ko'zga ko'ringan shoirasi, turk, fors, arab tillarida "Devoni maxfiy" devonini yaratgan mashhur xattot, Qur'oni Karimni bir necha bor o'z husnixati bilan ko'chirgan (nastamiya, nash, shikasta) Zebunisobegim (1639-1702) hayoti misolida boburiylar kurashidan voqif bo'lish mumkin. Zebuniso "Zeb-at-tafsir", "Zeb an nashoat" asarlarini ham yozgan. U go'zallikda tengi yo'q bo'lib, bobosi Shoh Jahon

---

<sup>45</sup> Sayfiddin Jalil Bobur haqida o'ylar. -T.: 2006. -b- 28.

<sup>46</sup> Zebunisobegim // Darakchi, 2002 yil, 25 avgust

uni to'ng'ich o'g'li Doro Shukuhning farzandi Sulaymonga uzatishni vasiyat qilgandi. Biroq, ota-o'g'ilning taqdiri fojiali kechganligi yuqorida qayd etildi. Zebunisobegimga Eron Safaviy hukmdori Abbos II ning o'g'li Mirzo Farrux oshiq bo'ldi. Zebunisobegim Mirzo Farrux bilan she'riy bahsga kirishib g'alaba qildi va "o'zimdan saviyasi, iqtidori past kishiga tegmayman", - deb uni rad etdi. U oila qurmay 63 yoshida Dehlida vafot etdi va Dehli shahridagi "Zardari" qabristoniga dafn etildi. Tadqiqotlarda keltirilishicha, u o'ziga maqbara qurishlarini o'limidan oldin rad etib: "g'ariblar qabrini yopish uchun giyohning o'zi basdir", - degan ekan. Hind yozuvchisi Chattopadxayning "Radj Singx" romanida keltirilishicha, saroy a'yonlaridan Oqilxon Roziy (Muborak Ali) ism-sharifli yigit Zebunisobegimning sevgilisi bo'lgan. Uni saroyda qizi bilan birga ushlab olgan Avrangzeb qochib borib qozonga kirganida (sumalak, Navro'z sayllarida foydalaniladigan doshqozonlardan biriga) quruq qozon ustiga o'tirib, ostidan olov yoqib, g'ujanak bo'lib qolgunicha kuydirgan.<sup>47</sup>

Boburiylar markazlashgan davlat tuzish maqsadida o'z raqib va dushmanlari bilan kurash olib borishar ekan, o'sha payt o'zlariga qarshi bo'lgan va bandi qilinganlarni, jinoyatchilarni o'rta asr an'anasiga ko'ra jazoga tortganlar. Shunday jazolardan biri jinoyatchilarni zaharli ilon saqlanadigan qafas oldiga olib kelib, jazoga mustahiq qilingan kishi oldin o'ng, so'ngra esa chap oyog'ini ilonga tutardi. Tanasi zaharga to'lgach ilon chaqqanidan so'ng ko'p o'tmay bunday kishining a'zoi-badani ko'm-ko'k tusga kirib, halok bo'lgan. Jazolashning qafaslarda asralgan quturgan fil oyog'i ostiga tashlash orqali o'ldirish usuli ham keng tarqalgan. Hukmdor agar qaysikim raqibiga shafqat qilsa, uning ko'ziga mil torttirish jazosini bergan. Unga ko'ra yirik ignalar cho'g'da rosa qizdirilib, jazolanuvchining oyoq qo'llari 3-4 kishi tomonidan bosib o'tirilib, chalqancha yotqizilgan va uning ikki ko'ziga tortib yuborilgan. Bir zumda ushbu jazoni olgan shaxs uchun yer yuzi zulmat bo'lib qolgan.

---

<sup>47</sup> Erskin Uilliam. Bobur Hindistonda. –T. Fan; 1995. –B 68.

Boburiylar skix, maratxlarning qarshiligini sindira olmadi. Ular markaziy davlatni ushlab turishlari uchun katta qo'shin kerak edi. Shuningdek, ichki ziddiyatlar, davlat boshqaruvidagi poraxo'rlik, rojalarning seperatchilik harakatlariga to'la chek qo'yish imkoniyati yaratilmadi. Hindiston uchun ingliz-fransuz ziddiyatlari kuchaydi. Aslida bu mamlakatni o'z ta'siriga olish uchun harakat Portugal, golland, ingliz va fransuzlar o'rtasida XVII asr boshlaridanoq boshlab yuborilgan edi.

Boburiylarning asosiy tayanchlari bo'lgan Agra, Dehli, Lahor shaharlarida yevropaliklarning savdo manzillari (faktoriyalari) paydo bo'lganligi asta-sekinlik bilan ular qudratini yemirayotgan edi. Avrangzeb hukmronligidan so'ng boburiy hukmdorlar ko'proq rasman shoh martabasida turganligini tarixiy voqeliklar isbotlaydi.

## **2.2. Boburiylarning qo'shnilar bilan diplomatik va elchilik munosabatlari**

O'rta Osiyo, Eron va Hindiston bilan diplomatik aloqalar Temuriy hukmdorlar davridan taraqqiy topgan edi. Ayniqsa, temuriy hukmdorlardan Shohruh Mirzo (1376-1447) va Ulug'bek Mirzolar davrida (1409-1449) o'zaro elchilik almashinuvlari qizg'in kechgan. Temuriylar davrining mashhur tarixchisi Abdurazzoq Samarqandiy "Shohruh elchixonasi" nomi bilan bog'liq Shohruhning Hindistonga kata elchilar guruhini yuborganligini yozib qoldirgan. Shohruh 1442 yilda Xo'ja Maqsud va Xo'ja Muhammadalar rahbarligidagi 20 kishilik elchilarini Hind davlatlari bilan savdo-sotiq va diplomatik aloqalar o'rnatish uchun yuboradi. Elchilarga tarixchi A.Samarqandiy ham qo'shib yuborilgan. U elchilar faoliyati bilan bog'liq voqealarni yozib brogan. Shohruh elchilari 18 kun Hind dengizi bo'ylab suzib Kalkutta portiga yetib boradilar. Kalkuttada ularni musulmon savdogarlari kutib oladi. Elchixona vakillari Hindistonda 3 yil bo'lib Bengaliya, Kalkutta, Bijangar, Samir hokimliklari bilan muzokaralar olib bordi. Hind shohlariga Shohruhning ot, po'stin, oltin bilan bezatilgan bosh kiyimlari kabi



sovg'alari topshirildi.<sup>48</sup> Elchilarga Hind yerida hurmat-izzat ko'rsatildi. Ular shoxona kutib olingan. Elchilar Shohruh huzuriga 10 tuya dori-darmon, feruza ko'zli oltin uzuklar, fil suyagidan yasalgan qimmatbaho sovg'alar bilan muvaffaqiyatli qaytib keladi. O'nlab davlatlar bilan shartnoma imzolanganligi e'lon qilinadi. A.Samarqandiy safar xarajatlari 50 ming tilloni tashkil etganligi, elchilarga esa vazifasini yaxshi bajarganligi uchun 4 ming tillodan pul, 1 tadan oltin egarli ot, oltin qadalgan zardo'zi do'ppi sovg'a qilinganligini yozib qoldirgan. Shohruhning elchilar xizmatlarini bu qadar yuksak baholashiga oldin yuborgan elchilarning Hindistonga yetib bormay, yo'lda halok bo'lganligi ham sabab bo'lgan edi.<sup>49</sup> Shohruh va Ulug'bek o'limidan so'ng xorij bilan diplomatik savdo-sotiq aloqalari susaygan bo'lsada ma'lum ma'noda davom etib turdi. O'rta Osiyoda hukmronlik uchun Temuriylar va Shayboniylar o'rtasidagi kurash xalqaro aloqalarga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Temuriylardan bo'lgan Zahiriddin Muhammad Boburning Hindistonda yirik davlatiga asos solindi. Uning vorislaridan Humoyun va Akbarshohlar davrida Movarounnahr aloqalari yangidan jonlanishiga sabab bo'ldi. Buxoro xoni Abdullaxon davrida esa (1557-1598) Sibir va Sharq mamlakatlaridan Hindiston bilan munosabatlar taraqqiy qildi.

O'rta Osiyo va Hindiston o'rtasidagi aloqalar Zahiriddin Muhammad Bobur Hindistonda o'z davlatini vujudga keltirganidan keyin (1526 yil) yanada rivojlandi. Bobur uning lashkarboshi va saroy ahllari Hindistonga o'nlab qarindoshlarini olib bordilar. Shoh taklifi bilan Farg'ona, Samarqand singari shaharlaridan olim, quruvchi, shoir, xattot, shifokor, bog'bon dehqonlar ham hind yurtiga borgan. Zahiriddin Muhammad Bobur "Boburnoma" asarida ta'kidlaganidek: "1528 yil 18 dekabrda shanba kuni qo'shni Eron va Shayboniylar davlatidan kelgan elchilar sharafiga ziyofat uyushtirildi. Ularga turli-tuman sovg'a-salomlar hadya etildi. Har uchchala mamlakat o'rtasida do'stlik va o'zaro savdo-sotiq munosabatlarini o'rnatish haqida shartnoma imzolangan. Boburning o'zi ham xorijiy mamlakatlar

---

<sup>48</sup> Nizomiddinov I. O'rta Osiyoning chet el sharqi bilan munosabatlari. –T: O'zbekiston; 1961. –B 103.

<sup>49</sup> Erskin Uilliam. Bobur Hindistonda. –T: Fan; 1995. –B 65.

bilan iqtisodiy va madaniy hamkorliklardan manfaatdor bo'lgan. Ayniqsa, savdo-sotiq avj oldi. Xalqimiz o'rtasida keng tarqalgan “doka”, “banoras” matolari Hindiston shaharlari Doka, Banoras nomlari bilan bog'liq. O'rta Osiyodan Hindistonga turli meva-chevalar olib borib sotilgan. Qovun tarvuz, handalak, bodring, uzum, anor, oshqovoq, mosh, no'xat kabi o'simliklar Bobur va uning vorislari davrida Turkistondan olib borilgan. Hindistonning yosh ayollari va qizlari Bobur davridan boshlab O'rta Osiyoda kiyiladigan lozim va ko'ylak kiya boshlaydilar. Hindlar dasturxonida o'zbeklarning turli taom va nonlari ham qo'yiladi: ularda “tandir non”, “chapatti somsa”, “kichiri”, “palov”, “holva”, “kabob” kabi taomlar ham bor.<sup>50</sup>

Sharqshunos olimi S.Azimjonova ta'kidlashicha, Bobur “Boburnoma” asarining bir nusxasini Movarounnahr olimlariga yuborgan. Ulardan ushbu kitobi haqidagi fikr-mulohazalarini yozib yuborishni so'ragan. Asar Sohibqiron Amir Temur o'z poytaxti Samarqandni go'zal qilishi uchun har kunida 200 ta usta ishlatgan bo'lsa, Zahiriddin Muhammad Bobur Hindistonda 600 quruvchini ishlatgan. Ustalarning aksariyati o'zimizdan borgan bo'lib, bugungi kunda jahon sayyohlarini hayratga soladigan Masjidi Jome', maqbara va minoralar va Toj Mahal kabilarda Turkistonlik ustalar xizmati bor edi. Bobur nafaqat ona yurti qolaversa, Yevropa bilan ham hamkorlik, o'zaro elchilik aloqalarini o'rnatishga harakat qiladi. Zahiriddin Muhammad Bobur Hindiston taxtiga chiqqanidan keyin o'zining elchilarini Rossiya davlatiga yuboradi. Uning elchilari Volga bo'ylariga yetib keladilar. Qishloqlarning biridan panoh topadilar. Ba'zi sabablarga ko'ra Rossiya davlati bilan Bobur davlati o'rtasidagi diplomatik munosabatlar o'rnatilmaydi. Bobur elchilari kelib to'xtagan qishloq esa “Boburina” nomi bilan atalgan.<sup>51</sup>

O'rta Osiyo bilan Hindiston o'rtasidagi diplomatik munosabatlar Boburning o'g'li Humoyun zamonida biroz susaydi. Chunki, Humoyun G'arbiy savdo yo'llarini qo'lga kiritish uchun Gujarat sultoni Bahodirshoh va Shimoliy Hindiston taxti da'vogarlaridan biri afg'on Mahmud Lo'diy bilan urushlar olib bordi. Ular

---

<sup>50</sup> F.Sulaymonova. “Boburiylar Hindistonda” // “Saodat”, 1992, № 8, 11bet.

<sup>51</sup> Erskin Uilliam. Bobur Hindistonda. –T: Fan; 1995. –B 65.

ustidan garchi g'alabaga erishgan bo'lsada, harbiy jihatdan madori qurigan Humoyun afg'on turkiylaridan bo'lgan Shershoh Suriy qarshiligiga uchraydi. Shershoh Suriy 1526 yil Bobur bilan Ibrohim Lo'diy o'rtasidagi kurash alamini olish, afg'onlar hukmronligini qayta tiklash uchun jang maydoniga kirgan. Ikki to'qnashuvda: 1539 yil 27 iyun kuni Chausa va 1540 yil 12 mayda esa Gang daryosining qirg'og'ida joylashgan Kanavuj janglarida Shershoh Suriy Humoyunni tor-mor qildi. Humoyun panoh izlab Eron shohlar huzuriga boradi. 1540-1554 yillarda Shimoliy Hindiston Shershoh Suriy va uning o'g'li Islomshoh qo'lida bo'ladi.<sup>52</sup> Shoh Humoyun davridagi keskin siyosiy kurashlar o'zaro hamkorlik aloqalariga to'sqinlik qilgan bo'lsada, Hindiston va O'rta Osiyo aloqalari Qobul-Balx-Marv-Omul (Chorjo'y)-Buxoro-Urganch yo'nalishida davom etdi. Hindistonga ko'plab oyna buyumlar, u yerdan Turkistonga ziravor tovarlar, ip, jun mahsulotlari keltirilar edi.

Agar Bobur, Humoyun davrida o'zaro hamkorlik, mutaxassislarni jalb qilish, savdo-sotiq qilish kabi yo'nalishlarda olib borgan bo'lsa, Akbarshohdan boshlab (1556-1605) o'zaro elchilik aloqalari o'rnatildi. Buxoro xoni Abdullaxon qudratli Akbarshoh davlati bilan diplomatik aloqalar o'rnatish tashabbusi bilan chiqdi. Ikki davlat o'rtasidagi elchilik almashinuvlari haqidagi ma'lumotlar Abulfayz Allamiyning "Ayni Akbarshoh" ("Akbarshoh tarixi") va Hofiz Tanish Buxoriyning "Abdullanoma" kabi asarlaridan olish mumkin. Buxoro xoni Abdullaxon (1557-1598) Hindiston bilan do'stona munosabatlarni o'rnatishga o'z siyosiy maqsadlari nuqtai-nazaridan qaragan.

Ikki buyuk davlat o'rtasida joylashgan Eron masalasi va savdo-dotiq yo'llaridagi asosiy shahar bo'lgan Balxni (Afg'oniston) egallagani uchun kurash olib borgan. U o'z elchilarini 1572 yilda Akbarshoh huzuriga sovg'a salomlar bilan yubordi. Xo'ja Oltomish boshchiligidagi Abdullaxon elchilari sovg'a salomlar bilan birga Akbarshohga xon nomidan maktub olib keldilar. Maktubda ikki davlat

---

<sup>52</sup> E.Ro'ziyev. "Hindistonda Shershoh davlati". Toshkent. "Fan"; 1992, -B 3-48.

o'rtasidagi aloqalar, do'stona munosabatlar o'rnatish haqida yozilgan. Abdullaxon ushbu nomasida Akbarshohga bir necha takliflar qiladi:

1. Ikki mamlakat o'rtasida kuchsizlanib qolgan Eronni bo'lib olish;
2. Qo'ldan-qo'lga o'tib turgan asosiy savdo yo'li Balxni egallashda madad berish.

Maktub so'ngida mumkin qadar tezroq o'zaro hamkorlik aloqalari o'rnatish so'ralgan edi. Akbarshoh ushbu takliflarga aniq javob bermaydi. Aksincha, u Eronni mustaqilligiga daxl yetkazmasligini bildiradi. Eng avvalo, Akbarshoh o'z davlatini kengaytirish uchun urushlar olib borgan.

Abdullaxon elchilari Hindistonga kelganida ham Akbarshoh Gujarat rojaligini bo'ysundirish bilan band edi. Akbarshoh Buxoro elchilarini g'alabadan keyin qabul qildi. Movarounnahrdagi siyosiy vaziyatdan xabarsiz bo'lgan Akbarshoh davlatiga 1565 yildayoq Eron shohi Taxmasp (1524-1576 yillar) elchilari kelgan. Ikki o'rtada o'zaro yaxshi qo'shniçilik shartnomasi imzolangan edi. Hind podshosi buxoroliklarga ushbu shartnomani buza olmasligini aytadi. Ikkinchidan esa, otasi Humoyun Shersshoh Suriydan yengilib Eron podshohi Taxmasp huzuriga qochib borgan (1540 yil) va undan harbiy yordam olib o'z davlatini qayta tiklaganini Akbarshoh unutmagan. Akbarshoh Humoyun tomonidan yordam evaziga Eronga hadya etiladigan Qandahorni (Afg'oniston) Buyuk Boburiylar davlatiga qo'shib olishni ham rejalashtirgan edi. U Abdullaxonga javob maktubida Eron ham musulmon davlati sifatida mustaqil yashasa maqsadga muvofiq, deb yozgan. 1577 yilda ikkinchi bor Hindistonga yuborilgan Abdurahim boshchiligidagi Abdullaxon elchilari do'stona kutib olingan. Ular Akbarshohga Abdullaxonning Erondan Xuroson, Iroq va Fors viloyatlarini tortib olish taklifini bildirgan. Buxoro elchilari Hindistondan Mirzo Fulot boshchiligidagi Akbarshoh elchilari bilan birga Buxoro xonligiga qaytadi. Elchilar Buxoroga kelganida (1578 yil) Abdullaxon Zomin va Samarqanddagi xalq qo'zg'olonini bostirish bilan band bo'lgan. U elchilarga o'z kuch-qudratini namoyish qilish maqsadida qo'zg'oloni bostirganidan keyin uchrashish istagini bildirgan. 1586 yil 14 mart Akbarshoh taxtga o'tirganligining 30 yilligi munosabati bilan Mir Quraysh boshchiligidagi Buxoro elchilarini qabul qildi.

Eron davlatidan Badaxshonni bosib olgan Abdullaxon o'z elchilariga: “Bu ishni islomni saqlash va mustahkamlash yo'lida” qilganligini bayon qilgan va maxsus noma berib yuborgan. Akbarshoh o'sha paytda o'ziga bo'ysunmagan Kashmir bilan jangler olib borgan. U “qarz qiyomatga qolmasin” qabilida ish tutib, Kashmirni bo'ysundirganidan so'ng Buxoro elchilari bilan uchrashgan. Ikki hukmdor o'rtasidagi so'nggi elchilik almashinuvlari 1594 va 1596 yillarda bo'lib o'tdi. Buxoro va Hindiston o'rtasidagi elchilik almashinuvlari Imomqulixon va Jahongir o'rtasida (1613 yil), Abdulazizxon va Shoh Jahon davrida (1669 yil) ham davom etdi. Boburiylar sulolasi davridagi Hindiston va O'rta Osiyo o'rtasidagi savdo-sotiq, elchilik, madaniy hamkorlik tarixi ikki buyuk xalq do'stligi tarixida eng yorqin sahifalardan birini tashkil qiladi. Hali bu yo'nalishda tadqiqotga muhtoj ishlar talaygina.

1573 yilda Kuchumxonning ukasi Mamatqul ruslarga qarshi kurashda yengilgan. 1586 yilda Boshqirdistonda harakat qilgan Kuchumxon Abdullaxondan harbiy yordan so'ragan. Abdullaxon uning huzuriga Din Xo'ja boshchiligidagi o'z maslahatchilarini yuborgan. Ruslar Tyumen (1586), Tobolsk (1587), Tara (1594) shaharlarini bari etib Kuchumxonga zarbalar berdi. 1598 yil Kuchumxon o'limidan keyin o'zaro elchilik aloqalari to'xtab qoldi, lekin ikki o'rtada savdo-sotiq davom etaverdi. Kuchumxon zamonidayoq “pul va donga muhtoj bo'lib” hamda “qozoq va qirg'izlar qo'lidagi asirlikdan qochish” kabi sabablarga ko'ra o'zbek, tojik, uyg'urlar joylashgan, hatto uyg'urlarni ham Sibirda “Kichik buxoroliklar” deb atashgan. O'nlab Buxoro savdogarlari Sibirda o'z savdo do'konlari va omborlariga ega bo'lgan. Ular Sibir bilan turkman, qozoq chorvadorlari o'rtasida vositachilik rolini o'ynagan. Sibir Rossiya tasarrufiga o'tganidan keyin vositachi buxorolik savdogarlar rus hukumatidan uy-joy, mol-mulk olish, erkin savdo qilish huquqlarini qo'lga kiritgan. Professor H.Z.Ziyayevning ma'lumoticha, Sibirda borib qolgan buxoroliklar bu yerda birinchi bo'lib ko'pchilik, gilam to'qish, dehqonchilik mashg'ulotlari bilan shug'ullanishga asos solganlar. XVII asrdan boshlab Sibir bilan elchilik aloqalari susayishiga uning yerlarini rus hukumatiga o'tishi va Astraxan orqali savdo-sotiqning qulayligi, buxorolik savdogarlarga berilgan imtiyozlar sabab

bo'lgan. Yuqoridagi voqealardan ko'rinib turibdiki, XV-XVI asrlar O'rta Osiyo xalqlari tarixida bir necha bor siyosiy o'zgarishlar yuz bersada, xalqaro maydonda hamkorlik aloqalari gohida susayib, gohida esa jonlanish davom etaverdi. Ayniqsa, qudratli bo'lgan Somoniylar va o'z tasarrufida 27 hozirgi mamlakatlar territoriyasini birlashtirgan Amir Temur zamonida keyinchalik Abdullaxonning Buxoro xonligida xalqaro iqtisodiy, elchilik va madaniy aloqalar sohasida muhim yutuqlar qo'lga kiritildi. O'rta Osiyo xalqlari bu davrlarda jahon iqtisodiy madaniy hayotiga juda katta hissa qo'shdi. Xalqaro maydonda mazkur davlatlarning obro'-e'tibori, mavqei yuksak bo'lganki, bugungi kunda shakllanayotgan milliy davlatchiligimiz ildizlari o'sha davrlar tarixiga borib taqaladi.

### **III BOB. BOBURIYLARNING YEVIROPA DAVLATLARI BILAN MUNOSABATLARI**

#### **3.1. Boburiy hukmdorlar va Yevropa mamlakatlari**

XV-XVI asrlarda amalga oshirilgan geografik kashfiyotlar tufayli Hindistonga boradigan arzon va qulay suv yo'li ochildi. Shuningdek, dunyo bo'ylab o'tkazilgan sayohatlar o'zining ilmiy-amaliy natijasini berib, mamlakatlararo savdo-sotiq, diplomatik aloqalarning yangi sifatiiy bosqichi boshlandi. Boburiylar tarixi va madaniyati, bu sulola hukmdorlari ichki va tashqi siyosati bilan Yevropada qiziqish Abdullaxon asrlardayoq boshlangan edi. Birinchi mustamlakachi davlatlar hisoblangan Portugaliya, Ispaniya, Gollandiya kabilar Hindistonda o'z savdo manzillari hamda savdo kompaniyalarini vujudga keltirish, ushbu mamlakatda o'mashib qolib, o'zlashtirish siyosatini yuritdilar.

Ayni o'sha paytda boburiy hukmdorlar ham farzandlariga yevropalik murabbiylarni yollab, ularni saroyiga kirib, yevropacha ilm-fan, til asoslarini o'rgatishga e'tibor qaratdilar. Akbarshoh saroyida Portugal Alberto Pereyro va farangi tili muallimi Antoni Monteseratti istiqomat qilib, ular hukmdorning o'g'illari Nuriddin Jahongir (Salim) va Murodga ta'lim berishgan.<sup>53</sup> Ular missionerlik vazifasini ham bajarib, nasroniylik dinini targ'ib qilish, o'z mamlakati hukmdorlariga ma'lumot to'plab uzatib turishdek ayg'oqchilik vazifalarini ham bajarishgan. Tarixiiy adabiyotlarda Alberto Pereyro va Monteseratti kabilar o'rtasida ziddiyat kuchli bo'lganligi, ular har biri o'z mamlakati manfaatidan kelib chiqib, hukmdorlarni o'z tomoniga og'dirish bilan shug'ullanganlari haqida ma'lumotlar keltiriladi. Yevropa madaniyat va san'at namoyandalari ham boburiy hukmdorlarga o'z asarlarida alohida e'tibor qaratishgan. Gollandiyalik mashhur rassom Rembrant 1655 yilda Boyazidni ta'qib etib borayotgan Amir Temur tasvirini chizgan. U Hindistonda boburiylar davrida yaratilgan miniatyuralardan ilhomlanib, Sohibqiron Amir Temurni Bobur, Humoyun va Akbarshoh Mirzolar davrasida aks ettirgan mashhur suratini chizgan.<sup>54</sup> Yevropada yaratilgan asarlarda boburiy hukmdorlar

---

<sup>53</sup> Pirmqul Qodirov. Avlodlar dovoni. –B.215

<sup>54</sup> Saidov A. Sohibqiron siymosi // O'zbekiston adabiyoti va san'ati. 2014 yil 4 aprel.

salobatli, dono, aqlli, tadbirkor va mohir diplomat sifatida tasvirlangan. Shu sababli Javaharlal Neru Zahiriddin Muhammad Boburni Yevropa hukmdorlari bilan taqqoslar ekan, uning buyukligiga asosiy urg'uni beradi: "Italiyada va umumiy Ovrupada Uyg'onish davrida adabiyotni va san'atni sevgan "avantyurist podsholar" ko'p o'tgan – deb yozadi Javaharlal Neru. – Ammo ular prinsipsiz, ig'voga mayli bor hukmronlar edi, dushmanlarga qarshi kurashda zahar solingan qadah va xanjar ishlatuvchi mustabidlar edi. Ritsat tabiatli Boburni bu hokimcha-sultonlar qatoriga qo'shish haqiqatga zid bo'lur edi.<sup>55</sup>

XVII asrning boshlarida Hindistonda Angliya va Fransiyaning manfaatlari to'qnashdi. Ta'kidlash joizki, Angliya sanoat va harbiy jihatdan Fransiyadan qudratli bo'lib, Hindistondagi boburiylarga qarshi bo'lgan etnik guruh va kuchlardan ustamonlik bilan foydalandi. Ayniqsa, maratxlar boburiylar qudratini sindirgan bir paytda inglizlar paydo bo'lishdi. Biroq, dastlab boburiylar bilan Angliya o'rtasidagi diplomatik munosabatlar o'rnatish qarshilikka uchradi. Shu sababli inglizlar iqtisodiy imkoniyatlaridan kelib chiqib savdo kompaniyalari orqali Hindistonga suqilib kirdilar. Yuqorida qayd qilinganidek, Vasko da Gama Hindistonni kashf etganidan so'ng (1498 yil) XVI asr boshlarida Hindistonda portugallar paydo bo'lishdi. Ular har yili 2-3 kema Hindistondan 2-3 kema ziravorlar olib ketar va uni Yevropada 60 marta ortiq foydasiga pullashardi. Portugallar Malabara qirg'oqlarida o'nlab savdo bazalarini, do'konlarini ochdilar. Ulardan so'ng gollandlar qadami Hindiston zaminiga yetib keldi. 1612 yilda anglichanlar Surat shahrida o'zlarining birinchi savdo faktoriyasini ochdi. Ular o'zlarining Ost-Indiya savdo kompaniyasi<sup>56</sup>ning payshiklari orqali Hindiston iqtisodiy va siyosiy hayotiga suqilib kirdi. Inglizlar imkon qadar boburiylar ta'sirida bo'lmagan viloyatlarga suqilib kirib, sovg'a-salom, nizo solish (orani bo'z, hukm sur!) yo'llari bilan mustaqil va yarim mustaqil rojaliklarni egallay boshladilar. Ost-

---

<sup>55</sup> Javaharlal Neru. Взгляд на всемирную историю. –М. Политиздат; 1976. –с 36.

<sup>56</sup> Ost-Indiya kompaniyasi 1602 yilda tashkil etilib ushbu savdo kompaniyasini 10 kishidan iborat "Direktorlar kengashi" boshqardi. Kompaniya "davlat ichidagi davlat" hisoblanib, savdo shartnomalari daromadlar ustidan o'zi tasarruf qilgan. Hatto, mulklarni qo'riqlaydigan harbiy qismlari ham bo'lgan. Ost-Indiya deganda yevropaliklar Hindiston, Shimoli-sharqiy Osiyo va Xitoyni tushunishgan.



Indiya kompaniyasi 1640 yilda Madrasda, 1668 yilda esa Bombayda, 1690 yilda Buyuk boburiylarning mustahkam qal'asi hisoblangan Kalkuttada o'rinish oldilar. Inglizlarning Madras, Bongaliya, Bombayda 3 ta mustahkam qarorgohi (rezidensiyasi) vujudga keldi. Bir paytda Bongaliya fransuzlar savdo markazi vujudga keldi. Daniyaliklar va shvedlar ham o'z savdo qarorgohlarini tashkil etishga muvaffaq bo'ldilar. XVIII asr boshlarida Angliya va Fransiya Hindistondagi ichki nizolardan ustamonlik bilan foydalandi. Fransuz general-gubernator Dyupmis yevropalik harbiylar va qo'shin (sipohiyalar) dan foydalanib Haydarobod va Karnatikni bosib oldi.

Yevropa tarixidan ma'lumki, XVIII asr 40-60 yillarida "Avstriya taxti uchun kurash" (1740-1748) hamda "yetti yillik urush" (1756-1763) kurashlarda Fransiya o'zining ko'pgina hududlaridan ajralib qolgandi. Fransiyaning kuchsizlanishi Angliya uchun Hindistonda faoliyat doirasining kengayishiga imkon berdi.

Hindiston viloyati hokim (navab)lari harbiy harakatlarni kuchaytirib, boburiylarni cheklab o'tgan holda hukmronlikka intildilar. Bongaliya navabi Siroj-ud-davla bilan taxtga da'vogar Mir Ja'far o'rtasida kurash boshlandi. 1756 yilda Kalkuttani egallagan inglizlar Mir Ja'farga Bongaliya hukmronligini va'da qilib, Siroj-ud-davlagaga qarshi kurashga tortdilar. O'sha paytda Ost-Indiya kompaniyasi harbiy zobiti Robert Klayf 2200 yevropalik qo'shin va sipohiyalar bilan Bongaliyuya poytaxti Murshidobodga hujum qildi. Inglizlarda pulemyot, harbiy zamonaviy artilleriya bo'lib, 100 ming kishilik Siroj-ud-davla qo'shini ustidan g'alabaga erishdi. Boburiylar hukumati ushbu harbiy harakatlarga qatnasha olmay Dehli qal'asida barcha jarayonlardan izolyatsiya qilib qo'yilgandi. Bongaliyaning 37 mln funt sterling baholanadigan xazinasini qo'lga olinib, Robert Klayf va uning yaqinlari 21 mln funt sterling mablag'ni o'zlashtirdi, Angliya hukumatidan yashirdi. Keyinchalik Bongaliya gubernatori bo'lgan Robert Klayf Angliya parlamentining prisyajniylar sudiga tortildi. Sudda uning Hindiston yerida qonunsizliklar qilganligi, o'ljalarni o'z yaqinlari bilan o'zlashtirganligi, poraxo'rliqi qanchalik namoyon

bo'lmasin Robert Klayf sudyalarni sotib olish evaziga oqlandi<sup>57</sup>. Angliya parlamentining qarori bilan Bongaliya gubernatorligiga Robert Klayf o'rniga Uorren Gastings yuborildi. U ham o'tmishdoshi singari qaroqchi, chayqovchi va poraxo'r sifatida parlament sudiga tortildi. Gastings sud protsessi 1788-1795 yillarda davom etib, ushbu jinoyatchini ham oqladilar. Inglizlar 1773 yilda Kalkuttada Hindiston general-gubernatorligini e'lon qilganlaridan so'ng, Boburiylar sulolasi hukmdorlari rasman podshoh bo'lib qoldilar. Ular Dehliga ko'chirilib, 7-10 ming hind rupiysi hisobida nafaqa belgilandi. Ost-Indiya kompaniyasi hind mulklarini egallar ekan daromadning 7/1 qismi Angliya (Buyuk Britaniya) xazinasiga tushdi. Inglizlar 60 minglik armiya bilan 200 minglik Hindistonni boshqarib, mamlakat ichida ingliz fuqarolari kvartallari tashkil etildi. Hindiston agrar mamlakat bo'lib, avvalda mavjud bo'lgan yerga egalik qilishning "jogir", "pargana" shakllari o'rniga "zamindorlik" (1793); "rayyatvari", "maxalvari", "mauzvari" shakllari joriy qilindi.

Angliya boburiylar to'la bo'ysundira olmagan Hindiston janubiga qo'shin tortib, 1; 2; 3-Maysur (Janubiy Hindiston) urushlari davrida (1782, 1790, 1799) bu o'lkalarni ham bo'ysundirdilar.

XVIII asr oxiriga kelib inglizlar Hindiston hududidagi Bongaliya, Lud, Bixar, Oris, Janubiy Hindistonning bir qator viloyatlarini o'z mustamlakalariga aylantirdilar. Soliqlar yildan-yilga oshib, Bongaliyada renta-soliq miqdori 1793 yilga qadar 1,5 mln funt sterling 2,8 mln funt sterlingga ko'tarildi. Bongaliyaning yeridagi ocharchilik tufayli 10 mln aholi (50 foiz) ochlikdan vafot etdi. XVIII asrda Kalkuttada turgan ingliz general-gubernatori Karnaulis 1789 yilda yozgan hisobotida: "Ost-Indiya kompaniyasi idora qilayotgan 1/3 qism yerlar hozirda chakalakzorlarga aylandi, aholisi esa yovvoyi hayvonlardek yashamoqda. Bizning hukmronligimiz shu tariqa davom etsa, bir necha yillardan so'ng Hindistonda kishilar emas, orangutang va yo'lbarslargina yashab qoladi<sup>58</sup> - deb fikr bildirgan. Hindiston Angliyaning xom ashyo bazasi va san'at mahsulotlari sotadigan bozoriga

---

<sup>57</sup> Новая история стран зарубежных Азии и Африки (под ред. А.Е.Ефимова) –Ленинград; 1971. –с 141; История стран Азии и Африки в новое время (под ред. Ацамба Г.А.) –Москва; 1971 г. –с 132.

<sup>58</sup> Satimov G'. Markaziy Osiyo va Hindiston tarixida boburiylar davri. –T.: 2008. –B 112-113.

aylanib bordi. Hindistonda aholining moddiy ahvoli og'irlashib, ayniqsa, general-gubernator Dalxuzi (1848-1851) davrida xalqning noroziligi yuksak cho'qqiga chiqdi. Bu esa boburiylar hukmronligi davrini yangidan qo'rmsash, mustamlakachilarga qarshi qo'zg'olonchilik psixologiyasini juda kuchaytirdi.

1857-1858 yillarda Hindistonda sipohiyar qo'zg'oloni bo'lib o'tdi. Qo'zg'olonning markazi Dehli shahri bo'lib, harbiy to'qnashuvlar Kalkutta, Kanpur, Banoras, Madras, Bongaliya, Ollohobod, Panjob kabi viloyatlarni qamrab oldi. Dehlidan Kalkuttagacha qo'zg'olonchilar hokimiyatni egallab, 10 kishidan iborat "qo'zg'olonchilar kengashi" tuzilgandi. Ulardan 6 nafari harbiylar bo'lib, qo'zg'olonchilar shiori: "Inson Ollohga tegishli, mamlakat shohga, hokimiyat harbiylarga!" – edi. Qo'zg'olonchilar kengashini Baxtixon ismli harbiy sipohiy boshqargandi.<sup>59</sup> Qo'zg'olonchilar so'nggi boburiy hukmdor Bahodirshoh II ni taxtga ko'tardilar. Bahodirshoh II qo'lida hokimiyat bo'lmasada, inglizlar boburiylar mavqei yangidan tiklanishidan tashvishga tushdilar. Angliya hukumati sipohiyar qo'zg'olonini bostirish uchun qo'shimcha harbiy kuchlarni safarbar qildi. Sipohiyar qo'zg'oloni 1858 yil kuzida bostirilganidan so'ng Bahodirshoh II o'z oilasi, qavm-qarindoshlari bilan asirga olindi. Ingliz armiyasi kapitani Xodson uni Rangun (Birma)ga surgun qilish jarayonida yo'lida barcha qavm-qarindoshlari, ikki o'g'li va nevaralarini otib tashladi. Bir nafar 5 yoshar o'g'li mo'jiza bilan tirik qoladi. Keyinchalik u: boburiylarning Hindistondagi avlodlari davomiyligini ta'minladi.

Xulosa o'rnida quyidagilarni ta'kidlash mumkin. Boburiy hukmdorlar bilan Yevropa mamlakatlarida Rossiya, Portugaliya, Gollandiya, Angliya, Fransiya kabilar bilan dastlab tengchilik asosida diplomatik savdo-sotiq munosabatlari o'rnatildi. Ushbu munosabatlar XVI-XVII asrlarda davom etar ekan, Yevropa davlatlari Hindistonni istiqbolda o'z ta'sir doiralariга olish maqsadlarini ko'zlab, muallim, "missioner", "elchi", "savdogar", "harbiy qo'riqchi" usullari orqali mamlakat hayotini yaxshigina o'rgandilar. Yevropa davlatlari boburiylar davlati

---

<sup>59</sup> Новая история Индии (кол-авт) -М. наука 1961; Осипов А.М. Великое восстание в Индии. –М.: 1954; Народное восстание в Индии (сборник статей). –М.: 1959; Антонова К.А. бонгардлеви История Индии. –М.: 1963.

ichiga kirib borar ekan, boburiyzodalar o'rtasidagi taxt uchun kurashlardan, boburiylar bilan mahalliy oppazitsion oqimlar (skixlar va maratxlar) orasida kechayotgan kichik urush va janjallardan ustamonlik bilan foydalandilar. Hatto, Hindiston hududida yakka hukmronlik uchun Angliya va Fransiya harbiy to'qnashuvga kirishdi. Oxir-oqibatda Hindiston Angliyaning uzoq asrlik mustamlaka davlatiga aylanib qoldi.

### **3.2. Boburiylarning hozirgi davrda Hindistondagi avlodlari va O'zbekiston bilan aloqalar**

Boburiylar Hindistonni boshqargan paytda Hindiston va hozirgi Pokiston Respublikasi bir davlat tarkibida bo'lishgan. Bugungi kunda Pokiston Respublikasida o'n minglab o'zbek millati vakillari istiqomat qiladilar. Ular orasida temuriy-boburiy sulolasi vakillari bo'lgan Barlos va Chig'atoy turkey qavm avlodlari ham anchagina. Temuriy va boburiylar o'ziga xos tarix, kechmish va urf-odatlariga ega. Ular Pokiston Respublikasi ijtimoiy, siyosiy, madaniy hayotida ham muhim rol o'ynaydilar. Ayniqsa, Pokistonning Ozod Kashmir viloyatida boburiylar anchagina zich yashashadi. Ulardan biri Axlak Ahmadning ta'kidlashicha, poytaxti Muzaffarobod shahri bo'lgan Ozod Kashmir viloyati (provinsiyasi)da uch million aholi istiqomat qilib, ularning 300 ming sonlisi Mo'g'ullar (Temuriy va boburiylarni – janubda shimoldan hujum qilganlarni “Mo'g'ul” deb atash rasm bo'lgan) avlodlariga mansubdir.

Ozod Kashmir provinsiyasi o'zining hukumatiga ega bo'lib, uning premier-ministri Pokiston milliy partiyasi rahbari Sulton Mahmud Choudri hisoblanadi.

Ahmad Axlak avlodlari Choudri hukumatida muhim, yuqori martabali mansablarda faoliyat yuritganliklariga e'tiborni qaratadi. Jumladan, Sardor Qamar Zamon Xon - Ozod Kashmirning ta'lim vaziri, Sardor Axmedjen Yusuf Xon - Ozod Kashmir premyer-ministrining bosh maslahatchisi, Miyon G'ulom Rasul - Ozod Kashmirning qishloq xo'jaligi vaziri, Sardor Askar Afandi Xon - Ozod Kashmirning

sog'liqni saqlash vaziri, Ali Xon Chig'atoy - Ozod Kashmir parlamenti a'zosi bo'lishgan.<sup>60</sup>

Ta'kidlash joizki, Axlak Ahmad bilan birga O'zbekistonga bir oy muddatga sayohat qilish uchun 1997 yilning 16 yanvarida Axlak Rasul ham tashrif buyurgandi. U Ozod Kashmirning qishloq xo'jaligi vaziri Miyon G'ulom Rasulning o'g'li bo'lib, otasining maslahati bilan uzoq o'tmishdagi qarindoshlari vatanini ko'rish niyatida kelgandi. Pokistonlik Amir Temur va Z.M.Bobur avlodi O'zbekistonning Samarqand, Buxoro, Andijon shaharlarida, Qirg'izistonning O'sh shahrida bo'ldi.

Arxiv hujjatlaridan aniq bo'ladiki, 1996 yilda "Ozod Kashmir mo'g'ullari (temuriy-boburiylarni bu mamlakatda shunday nomlashadi) avlodlariga ta'lim berish va ularning kelib chiqishini o'rganish jamiyati (MESAK MFAK) tuzilgan. Bu jamiyat o'zining binosiga, muhriga, mablag'iga, kutubxonasiga ega bo'lib, O'zbekistondagi bir qator tashkilotlar bilan hamkorlik qilish istagini bildirgan. Jumladan, 1992-1998 yillarda faoliyat yuritgan O'zbekiston Respublikasi xalqaro madaniy-ma'rifiy aloqalar assotsiatsiyasi (O'zRXAMA) ga o'zaro hamkorlik o'rnatish bilan bog'liq rasmiy murojaat xatini topshirishgan. Bu yo'nalishda hamkorlik aloqalari yo'lga qo'yilganligi bilan bog'liq ma'lumotlar afsuski, bizda mavjud emas.

Nima bo'lganda ham Pokiston Respublikasining Ozod Kashmir viloyatida temuriy-boburiylarning bugungi avlodlari istiqomat qilib kelmoqda. Ular uzoq asrlardan buyon avlodiy davomiylikni saqlab keladilar. Shuningdek, ular o'zlarining ajdodlari tarixini ajdod va avlodlar o'rtasidagi o'zaro uzviy davomiy bog'liqlikni saqlab kelayotganliklari muhimdir.

Zahiriddin Muhammad Bobur Sohibqiron Amir Temurning uchinchi o'g'li Mironshoh Mirzo bilan to'rtinchi avlod orqali temuriylar sulolasiga bog'lanishi oldingi boblarda qayd etildi. U Hindistonni zabt etganidan so'ng (1526 yil aprel) bu mamlakatda yangi sulolaga asos solinib, uning avlodlari davlatni 332 yil (1526-1858 yy) davomida boshqardilar. Salkam uch yarim asrlik tarixiy davrda boburiylar

---

<sup>60</sup> O'zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivi (O'z RMDA) M-2-fond: 1-ro'yxat, 229-hujjat, 1,3,5,7 varaqlar, 154-hujjar, 4,5-7 varaqlar. (Ushbu arxiv hujjatlari ilmiy rahbar t.f.d. Sh.A.Hayitovdan olindi.)

Hindiston o'lkasida amalga oshirgan xayrli ishlar tarix zarvaraqlarida abadul-abad naqshlangan. Hindiston tarixida Angliya mustamlakachilariga qarshi 1857-1859 yillarda ko'tarilgan sipohiyalar qo'zg'olonini bostirgan inglizlar so'nggi boburiy hukmdor Bahodirshoh Zafarni taxtdan tushirib, uni Rangun (Birma)ga surgun qiladilar. Rangun safari davrida mustamlakachilarning zobitlari tomonidan Bahodirshoh II farzandlari otib tashlanadi. Sovet hokimiyati yillarida Z.M.Boburning avlodlari haqida ma'lumotlar mavjud emasdi. "Temir parda" deb nom olgan Sovet davlatida o'tmishda o'tgan hukmdorlar va ularning avlodlari yuqori tabaqa vakillari sifatida "zolim", "qonxo'r", "johil" kabi atamalar bilan asossiz haqoratlanib kelingan. Biroq, istiqlol yillarida Zahiriddin Muhammad Bobur shaxsiyati va uning harbiy mahorati, sarkardalik, hukmdorlik salohiyati, diplomatik mahorati, ilmiy, tarixiy va adabiy merosini o'rganishga e'tibor kuchaydi. Bu savobli ish yo'lida 1992 yilning iyul oyida shoh va adib tavallud topgan Andijonda Zahiriddin Muhammad Bobur nomi bilan xalqaro jamg'arma tashkil etish tashabbusi ko'tarildi. 1993 yil 23 dekabrda ushbu jamg'arma rasman tashkil etilib, uning raisi, tabiatshunos olim Zokirjon Mashrabov hisoblanadi. Ushbu jamg'arma a'zolari "Bobur izidan" ilmiy safarga chiqdilar, ular Hindiston va o'nlab Sharq mamlakatlarida bo'ldilar. Ularning sa'y-harakatlari tufayli Zahiriddin Muhammad Bobur va boburiylar tarixiga oid boy ilmiy ma'lumotlar to'plandi, yangi asarlar yaratildi.<sup>61</sup>

Ushbu yo'nalishda ilmiy ekspeditsiyalarning faol qatnashchisi, tarix fanlari doktori, professor R.T.Shamsutdinov 1993 yilning 15 aprelida "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasida "Bobur avlodlari bormi?" nomli maqolasini chop ettirdi. Maqolada qayd etilishicha, Hindistonning poytaxti Dehli shahrida oxirgi boburiy sulton Bahodirshoh Zafar avlodlaridan Pokiza Sulton begim istiqomat qiladi. U Dehli'dagi xorijiy mamlakatlar bilan aloqa qilish Hindiston tashkilotidagi katta kutubxonada nafaqaga chiqqunchadirektor lavozimida faoliyat yuritgan. Pokiza Sulton Begimning onasi Qamar Jahon Zebuniso oro Begim 92 yoshida vafot

---

<sup>61</sup> Ochilov E. Bobur (Risola). –T.: "ABV MATBUOT KONSALT", -2011. –B. 24-25.

etgan. Bu ayol Hindistonda boburiylar tarixi va madaniyatini targ'ib qilgan. Biz yuqorida ta'kidlaganimizdek, Bahodirshohning barcha o'g'illari inglizlar tomonidan o'ldiriladi. Biroq, 5 yashashar o'g'li Mirzo Fotih-ul-Mulk shohning sodiq amaldorlari va xizmatkorlari tomonidan qalin o'rmonga yashirilib, o'sha joyda tarbiyalanadi. Qamar Jahon Zebunisobegim Fotih-ul-Mulk avlodi bo'lib, ingliz qirolchasi Hindistonga tshrif buyurganda mo'g'ullar (boburiylar) malikasi sifatida tantanali qabul marosimiga taklif etilgan. Javaharlal Neru va Indira Gandilar La'l qal'ada, ya'ni Bahodirshoh Zafar tavalludining 100 yilligi nishonlanganida uni qutlashgan. 30 yil davomida falaj bo'lib, nogironlar aravachasiga mixlanib qolgan bo'lsada, Qamar Jahon Zebunisobegim ruhan cho'kmagan, jamoatchilik faoliyatidan to'xtamagan.<sup>62</sup>

Zahiriddin Muhammad Bobur avlodlari tarixini o'rganish masalasi yuqoridagi ma'lumotlar bilan tugamaydi. Aksincha, keltirilgan dalillar bu mavzuni yanada mukammalroq tadqiq qilishga turtki berdi. 1970 yillarda Hindistonning Haydarobod va Bombay shaharlarida istiqomat qilgan muhojir o'zbeklar tomonidan madaniy-ma'rifiy jamiyatlar tuzilgan. "Hindiston Mo'g'ullar jamiyati" Haydarobod shahrida tashkil etilgan<sup>63</sup> – degan fikrlar keltiriladi, ayrim maqolalarda.<sup>64</sup>

Ma'lumki, Haydarobod Hindistonning eng janubida joylashgan viloyatlardan biri bo'lib, ushbu hududda uch milliondan ortiq aholi yashaydi. "Hindistondagi Mo'g'ullar oilasi" jamiyatining qarorgohi Haydarobodda bo'lib, ularning hovli eshigiga oilaviy mansublikni anglatadigan nishon – lavha yopishtirib qo'yilgan. Boburiyodalardan Begim Sohiba Laylo Ummaxoni – jamiyat raisasi, Bahodirshoh Zafarning evarasi, bosh farzandi Ziyovuddin Tusiy – jamiyat bosh kotibi, ikkinchi o'g'li – Masihiddin Tusiy – jamiyatning madaniy ishlar bo'yicha kotibi hisoblanadi.

---

<sup>62</sup> Ochilov E. Bobur (Risola). –T.: "ABV MATBUOT KONSALT", -2011. –B. 24-25.

<sup>63</sup> Hindistonda shimoldan kelgan fotihlarni bir nom bilan ya'ni "Mo'g'ullar" deb atashgan. Shuning uchun Z.M.Bobur asos slogan sulola ham "Buyuk Mo'g'ullar sulolasi" deb rasmiy adabiyotlarda yuritiladi. "Hindiston Mo'g'ullar jamiyati – Boburiylari" degan nom bilan atalganligi arxiv hujjatlarida uchraydi. Hindistondagi Mo'g'ullar sulolasi tushunchasi ham mavjud.

<sup>64</sup> Hayitov Sh. Va b. Zahiriddin Muhammad Boburning Hindistondagi avlodlari // Pedagogik mahorat. 2011. № 4. – B. 51-56.

Shuningdek, Laylo Ummaxonimning qizlari, kelinlari va naberalari jamiyat a'zolari sifatida Hindistonda boburiylar madaniyatini targ'ib qiladilar.

1995 yilning kuzida “Bobur xalqaro jamg'armasi” a'zolari ushbu xonadonga tashrif buyurganlarida Laylo Ummaxoni xonimga o'zbekona naqshlar bilan bezatilgan paxta gulli choynak-piyola xonadon ahliga Prezident sovg'asi – Hazrat Alisher Navoiy siymosi tushirilgan ipak gilam, o'zbekona sarupolar, Z.M.Boburning asarlaridan “Mubayyin”ning beshinchi qismi “Kitob-ul-haj”, “Boburnoma”, bobokalonimiz tasviri tushirilgan plakat va ko'krak nishonlarini esdalik sifatida tuhfa qilishgan. Xonadon va jamiyat a'zolarining moddiy ahvoli bir qadar og'irligi jamiyat raisi Laylo Ummaxonni salomatligining yomonlashganligi tufayli O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov O'zbekiston hukumati nomidan 2500 AQSH dollari miqdorida boburiylarga moddiy yordam ko'rsatgandilar. Bu esa boburiylar avlodlariga bildirilgan yuksak hurmat va e'tibor namunasi bo'ldi.

Laylo Ummaxonning ma'lumoticha, Bahodirshohning Mirzo Quyosh nomli bir o'g'li tasodif tufayli tirik qoladi. Undan Mirzo Abdulloh, Abdullohdan Mirzo Abdug'affor, Mirzo Abdug'affordan Mirzo Yusuf ismli o'g'il va ikki qiz – Husnijahonoro Begim va Ummaxonilar dunyoga kelgan. Mirzo Yusuf 19 yoshda vafot etgan. Demak, Laylo Ummaxonining shajarasi to'g'ridan-to'g'ri Bahodirshoh Zafarga, undan Zahiriddin Muhammad Boburga borib taqaladi.

Laylo Ummaxoni turmush o'rtog'i bilan to'rt o'g'il, uch qizni tarbiyalab voyaga yetkazgan. Muiniddin Tusiy va Laylo Ummaxonilardan Ziyovuddin, Masihiddin, Shajoiddin, Orifiddin kabi o'g'illar, Mohiruh, Gulruh, Layloruh kabi qizlar tavallud topgan. Bobur avlodlari Hindistondan tashqari Pokiston, Birlashgan Arab amirliklari, Bangladesh, Afg'oniston, Arab mamlakatlari, Buyuk Britaniyada ham istiqomat qilar ekan.<sup>65</sup> Tusiy nomiga kelsak, arab va ingliz tillari bilimdoni, “Vatan” jamiyatida faoliyat yuritgan, keyinchalik elchilik vazifasida ishlagan Ahmadjon Luqmonov talqinicha, bu Eronning Tus shahriga mansublikning ishorasi

---

<sup>65</sup> Xayriddin Sulton. Boburiynoma. –B. 265-266, 272-273, 283-289, 290-292, 386-387.



emas, balki “Chustiy” nomi til leksikonida keyinchalik “Tusiy” bo’lib ketganligidandir.

“Hindiston Mo’g’ullar jamiyati” a’zolari 1994 yilning yanvar-fevral oylarida ilk bor ulug’ bobokalonlari yurti Zahiriddin Muhammad Bobur vataniga tashrif buyurdilar. Ular O’zbekiston Respublikasi Xalqaro Madaniy Aloqalar Milliy Assotsiatsiyasida (O’z XAMA) turli tashkilot va korxonalarda bo’ldilar va ajdodlari yurtidagi o’zgarishlardan voqif bo’ldilar. Assotsiatsiya bilan jamiyat o’rtasidagi 1994-1998 yillarga mo’ljallangan o’zaro hamkorlikning bitim loyihasi imzolandi. Natijada Ramazon va Qurbon hayiti hamda Navro’z bayramlarida o’zaro tabriknomalar, maktubiy almashinuvlar yo’lga qo’yildi. Shuningdek, “Hindiston Mo’g’ullar jamiyati” manziliga O’zbekistondan “Oydin”, “O’zbekiston – kontrakt” kabi matbuot organlari yuborib turiladigan bo’ldi. Ushbu nashrlar O’zbekistonda muhojir o’zbeklar uchun nashr qilinadigan gazeta va jurnallardir. Ular dunyoning ko’plab tillarida chop etilgan.<sup>66</sup>

1996 yilning may oyida “Hindiston Mo’g’ullar jamiyati”ning bosh kotibi Ziyovuddin Tusiy va tashkilot madaniy ishlar maslahatchisi Masihiddin Tusiyilar O’zbekistonda bo’ldilar. O’z XAMAda, 1996 yil 8 mayda o’tkazilgan qabul marosimida O’zbekiston xalq yozuvchisi Pirimqul Qodirov ham ishtirok etdi. Zahiriddin Muhammad Bobur va uning avlodlari Humoyun, Akbarshohlar haqida fundamental asarlar, tarixiy romanlar yozgan adib lotin imlosida chop etilgan asarlarini Ziyovuddin Tusiyga taqdim etdi. O’z navbatida Ziyovuddin Tusiy Bahodirshoh Zafardan qolgan bir qator qo’lyozma asarlarni o’zbekistonliklarga tuhfa qildi. “Hindiston Mo’g’ullar jamiyati” – “Boburiylar uyi” bilan O’z XAMA o’rtasida 1996-2000 yillarga mo’ljallangan hamkorlik bitimi imzolangan.<sup>67</sup>

“Hindiston Mo’g’ullar jamiyati” bosh kotibi Ziyovuddin Tusiy 1990 yillarning ikkinchi yarmida O’zbekistondagi maxsus tashkilotlar, hukumat muassasalariga bir qator o’zining maktublari bilan murojaat qildi. Ushbu maktublarda Tusiyilar Zahiriddin Muhammad Bobur avlodlaridan bo’lganligi uchun

---

<sup>66</sup> Hayitov Sh. O’zbek muhojirligi tarixi. T.: ABV MATBUOT KONSALT; 2011. -208 b.

<sup>67</sup> Xayriddin Sulton. O’sha kitob. –B. 389.

Hindistondagi Bobur bilan bog'liq madaniyat va san'at yodgorliklaridan bo'lgan meros sifatida ularga ajratib berishlari uchun ko'maklashish, moddiy ahvollari past bo'lganligini hisobga olib, Tusiylar oilasini O'zbekistonga bepul tashrifini tashkil etish, ular farzandlarini O'zbekistonda, hech bo'lmasa, Andijondagi o'quv yurtlarida tekin o'qishlariga imkon yaratish kabi fikrlar ilgari surilgan.<sup>68</sup> Tegishli tashkilotlarimiz tomonidan mazkur maktublarga qoniqtiruvchi javob qaytarilgan.

O'z XAMA, O'zbekistondagi Hindiston elchixonasi, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Zahiriddin Muhammad Bobur va Mirzo Ulug'bek jamg'armalari kabi muassasalar hamkorligida Tusiy xonadoniga amaliy yordam ko'rsatish choralari ko'rildi. "Hindiston Mo'g'ullar jamiyati" raisasi Laylo Ummaxoni O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimovga o'zining chuqur ehtirom va minnatdorchilik izhori bitilgan maktubni yo'lladi.

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimov Janobi Oliylariga!

Siz, Janobi Oliylari, va buyuk o'zbek xalqi bemorlik davrimda ko'rsatgan olijanoblik va mehr-muhabbat menda chuqur taassurot qoldirdi. Shuningdek, men O'zbekistonning Hindistondagi elchisi va elchixona xodimlariga bizga ko'rsatgan g'amxo'rliklari uchun o'z minnatdorchiligimni bildiraman. Hozir, salomatligim tiklangandan so'ng, o'tayotgan har bir daqiqa menga Sizning Hindistondagi Boburiylarning hozirgi avlodlari bilan uzviy bog'liqligingizni eslatmoqda. Oilamizning olti nafar yoshlari bepul ta'lim olishlariga O'zbekiston hukumati bergan maxsus diqqat-e'tibor uchun men, Siz, Janobi Oliylariga minnatdorchilik bildirishni o'z burchim deb hisoblayman. Men hazrat Bobur avlodlariga qilgan olijanobligi uchun hukumatingizga yuksak minnatdorchilik bildiraman.

Hozir sog'lig'im ancha yaxshilanib, hazrat Bahovutdin Naqshbandiy, Imom Buxoriy, Termiziy muqaddasgohlari va Andijondagi Bobur muzeyini ziyorat etish va, shuningdek, O'zbekiston timsoli bo'lgan ulug' bobokalonlarimiz hazrat Temur, Bobur, Mirzo Ulug'bek va Navoiylarning qudratli diyoriga borish istagidaman.

---

<sup>68</sup> Hayitov Sh. O'zbek muhojirligi tarixi. T.: ABV MATBUOT KONSALT; 2011 –B. 54.

O'ylaymanki, mening orzu-niyatlarim haqiqatga aylanadi.<sup>69</sup> Begim Laylo Ummaxoni deb yozilgandi, maktubda.

Ziyovuddin Tusiy bilan olib borilgan maktubiy almashinuvlar natijasi o'laroq "Hindiston Mo'g'ullar jamiyati" a'zolari ota-bobolari yurtiga bir neha bor tashrif buyurdilar, ular respublika poytaxti Toshkent shahrida, tarixiy shaharlarimiz hisoblangan Samarqand, Buxoro hamda Zahiriddin Muhammad Boburning ona shahri – Andijonda bo'ldilar. Zahiriddin Muhammad Boburning avlodlariga Andijondagi Bog'i Boburni, shoir ramziy qabri maqbarasini, Bobur va jahon madaniyati muzeyi hamda adib haykalini ziyorat qilishdek baxtga muyassar bo'lishdi. Andijonda Bobur nomida Universitet faoliyat yuritayotganligi, shahar markaziy ko'chalaridan biri adib nomi bilan atalishi, Toshkentdagi istirohat bog'i va ko'chaga ham yurtdoshimiz nomi berilganligi O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Bobur nomi bilan medal ta'sis etganligini bugungi kunda Hindistonda hayot bo'lgan boburiylarning qalbini faxr va g'ururga to'ldirdi.

Biz quyida O'zbekiston o'quv yurtlarida ta'lim olish uchun yuborilgan Hindistonlik boburiylar ro'yxatini keltiramiz.<sup>70</sup>

T/r	Ismi va familiyasi	Pasport nomeri	Tug'ilgan vaqti	Quyidagi kasb egasi bo'lish istagida
1	Minghojiddin Tusiy	Q504699	01.08.1976	Vrach (Xirurg)
2	Muhammad Abdul Shamil	G819390	02.04.1964	Injener
3	Muhammad Abdul Odil	G402.238	02.01.1970	Injener
4	Muhammad Muazzam	H:671456	07.05.1975	Stomatolog
5	Muhammad Abror	O:860645	28.08.1977	Vrach (Xirurg)
6	Muinniddin Tusiy	V:403801	02.12.1985	O'rta maktab yoki internatda o'zbek tilini o'rganish

<sup>69</sup> Hayitov Sh. O'zbek muhojirligi tarixi. T.: ABV MATBUOT KONSALT; 2011 –B. 54.

<sup>70</sup> Hayitov Sh. O'zbek muhojirligi tarixi. T.: ABV MATBUOT KONSALT; 2011 –B. 54.

O'zbekistondagi hukumat idoralari tashkilot va uyushmalar, jamg'arma va xayriya muassasalari o'lkamizda o'qish istagini bildirgan boburiylarni tekin yashash joyi, stipendiya va o'quv qurollari bilan ta'minlash majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

“Ulug'bek” jamg'armasi “Boburiylar uyi” jamiyati a'zosi, Hindiston fuqarosi Muhammad Abrorning ota-onasi moddiy imkoniyati cheklanganligini inobatga olib, 1995-1996 o'quv yilida unga xayriya jamg'armasi stipendiyasini ajratdi. Hatto, uning iyun, iyul, avgust oylarida chet ellik fuqarolarga til o'rgatish markazida o'qishi uchun 9 ming so'm miqdorda xayriya jamg'armasi stipendiyasi berildi<sup>71</sup> - deyiladi arxiv hujjatida.

O'zbekistondagi oliy o'quv yurtlari til o'rganish markazlari, tayyorlov kurslari olti nafar hindistonlik vatandoshni o'zlari tanlagan mutaxassislik bo'yicha bepul ta'lim olishlari uchun qabul qilishga tayyor ekanligini bildirganligi – Zahiriddin Muhammad Bobur va boburiylarga bo'lgan yuksak ehtirom va hurmat ramzidir. Boburiylar jamiyati Eron Islom Respublikasi va bir qator arab mamlakatlarida ham mavjud bo'lib, ularni atroflicha ilmiy tadqiq qilish kelajak zimmasidadir.

---

<sup>71</sup> Hayitov Sh. O'zbek muhojirligi tarixi. T.: ABV MATBUOT KONSALT; 2011 –B. 55.

## XULOSA

XVI-XVIII asrlarda Boburiy hukmdorlar diplomatiyasi mavzusi magistrlik dissertatsiyasi doirasida tadqiq qilinarkan quyidagicha yakuniy xulosalarga kelindi.

1. Boburiy hukmdorlar Zahiriddin Muhammad Boburdan Avrangzebga qadar Hindistonda mustaqil ichki va tashqi siyosat yuritarkan, diplomatik munosabatlarni ulug' bobokalonlari Sohibqiron Amir Temur "tuzokotlari"dagi adolat tamoyiliga asoslangan qonun-qoidalarga rioya qilib ish ko'rishga intilganliklari ko'rinadi. Boburiy vorislaridan Akbarshoh (1556-1609) o'z hukmronliklari davrida katta miqdordagi oltin, olmos va javohirlarni "Amir Temur maqbarasi"ni ta'mirlash uchun Samarqandgacha yuborganliklarining o'ziyoq ular Sohibqironga, ya'ni ulug' bobokalonlariga sadoqatli bo'lganliklarini ko'rsatadi. Shuningdek, "Temur tuzuklari" o'rta asr musulmon qonunchiligida o'z davri uchun mukammal ishlangan, tashqi siyosatda, elchilar almashinuvi va hukmdorlar munosabatidagi eng adolatli mezonlar asosida ish ko'rishga yo'naltirilgan edi.

2. Zahiriddin Muhammad Boburning diplomatiyasi avvalboshdanoq nazokatli diplomatiya bo'lib, o'zi yashagan tarixiy davr doirasidan yorib chiqqan edi. Uning diplomatiyasida siyosiy masalalarga xotin-qizlarni aralashtirmaslik, a'yonlar bilan qilingan mashvarat (kengash va majlis)lardan so'ng hukmdor sifatida shaxsan xulosaga kelish, ko'p masalalarni o'z aql-zakovati va fahm-farosati bilan hal qilish, diniy tafovutlardan insoniylik tamoyili va davlatlar manfaatini ustun qo'yish, hal qiluvchi vaziyatda favqulotda to'g'ri qarorlar qabul qilish tamoyillari ustunlik qilardi.

Zahiriddin Muhammad Bobur va uning vorislari Humoyun, Akbarshoh kabilarda davlat manfaatlari bilan toj-taxt, qavm-qarindoshlik munosabatlari uyg'unlikda qaralib, yaqinlar tomonidan qilingan xiyonatlar ham ko'p hollarda avf etilgan. Shuningdek, aka-ukalar, opa-singillar o'rtasidagi munosabatlar o'zaro mehr-oqibat, sadoqat ko'rsatish prinsiplariga asoslangan. Boburiylar temuriyzodalar, shayboniylar, safaviylar bilan munosabatlarda insoniy tamoyillarni saqlashga, "yaxshilikka yaxshilik bilan javob qaytarish qoidasi"ga asoslangan.

Bobur qavm-qarindoshlariga, farzandlarida cheksiz mehr-muhabbat bildiradigan hukmdor namunasidir. Boburiy hukmdorlar temuriyzodalar bilan raqiblari o'rtasidagi munosabatlarda o'z sulolasi a'zolariga zinhor xiyonat qilmaslik prinsipiga amal qilishgan. Hatto, Zahiriddin Muhammad Boburga Farg'ona Ahmad Tanbal temuriyzodalarga qarshi kurashda ittifoq taklif qilganida "men temuriyzodaman, sen bilan qarindoshlarimga qarshi ittifoq tuzmayman" deb oqilona javob bergan. Demak, sulola asoschisida toju-taxtdan qavm-qarindoshchilik ustunlik qilgan.

3. Boburiy hukmdorlar ham o'rta asr, ya'ni o'z davrining hukmdorlari hisoblanishgan. Ular o'z davlatlari sarhadlarini kengaytirish, xavfsizligini ta'minlash, harbiy harakatlarga kirishish, raqiblar bilan ayovsiz kurash olib boorish kabi jihatlardan uzoq bo'lmagan. O'rta asrlarda hukm surgan "jahongirlik an'anasi", "sen qurol ko'tarib bormasang boshqalar sening yurtingga qurol ko'tarib keladi", - degan tushunchalar mavjud ediki, bu holat boburiy hukmdorlarni o'z davlatida doimo tinch yashash, moddiy-ma'naviy madaniyatni muttasil, uzluksiz taraqqiy qildirishga monelik qilardi.

4. Boburiy hukmdorlar diplomatiyasida o'rta asrlarda qabul qilingan davlatlararo munosabatlardagi qoidalarga qat'iy amal qilish jarayoni kuzatiladi. Hukmdor kattayu- kichikligidan qat'iy nazar uni o'zi bilan teppa-teng ko'rish, uchrashuv joyiga qadar bir xil masofani bosib o'tishi, uch bor bosh egib ta'zim ko'rsatish, sovg'a-salomlar yuborishda "to'qqiz-to'qqizlar" qoidasiga amal qilish, xorij elchisini izzat-ikromli joyga qo'yib, qimmatbaho sovg'alar bilan yurtiga kuzatish va hokazo.

5. Boburiy hukmdorlardan boy tajribaga ega bo'lgan Zahiriddin Muhammad Bobur va nevarasi Akbarshoh davridagi diplomatik mahorat alohida e'tiborga loyiq. Bobur o'z elchilarini Rossiyaga qadar yuborgan bo'lsa, Akbarshoh G'arb davlatlari bilan kengroq aloqalarga kirishish yo'lini tutdi. Akbarshoh elchilar almashinuvida, xorij bilan siyosiy munosabatlarga kirishishida ehtiyotkorlik siyosatini yuritganligi ham e'tiborga loyiq. U o'z saltanati manfaatlarini, chegaralar sarhadlarini daxlsizligini saqlash diplomatiyaning muhim vositasi deb hisobladi.

6. Boburiy hukmdorlar diplomatiyasi boy tarixiy tajribaga ega bo'lib, murakkab tarixiy sharoitda takomillashib, sayqal topib bordi. Diplomatiyadagi Yevropa mamlakatlariga munosabat keying davrlarda bo'shshdi. Boburiylar sulolasi o'rtasidagi ichki ziddiyatlar, toj-taxt tortishuvlari, harbiy qudratning pasayishi, Yevropa davlatlarining Hindistonda hukmronlik uchun kurashlariga to'sqinlik qilishga imkon bermadi. Oxir-oqibatda Angliya-Fransiya harbiy to'qnashuvida Hindiston XVIII asr o'rtalaridan ingliz qo'liga o'ta boshladi. Boburiy hukmdorlarining davlat boshqaruvidagi ishtiroki yildan-yilga nominal harakatlar kasb etib bordi. Hindistonda inglizlarga qarshi kurashlar boburiylar sulolasi qudratini tiklash bayrog'i ostida kechganligining o'ziyoq, bu sulola ushbu mamlakat tarixida qanchalik mustahkam iz qoldirganligidan dalolat beradi.

Magistrlik dissertatsiyasini yozib yakunlar ekanman quyidagicha taklif va tavsiyalar bayon etishni lozim topdim:

- O'rganilgan tarixiy-xronologik chegarada Boburiy hukmdorlar diplomatiyasiga oid fundamental monografiya yaratish maqsadga muvofiq bo'lardi.
- Kelgusida "boburiy hukmdorlar", "boburiy malikalar", "O'zbekistonda boburshunoslik natijalari", "xorijda boburshunoslik", "Bobur avlodlari" mavzularida tadqiqotlar olib borishning doirasini kengaytirish kerak.
- Boburiy hukmdorlar, ularning tashqi siyosati va diplomatik mahoratiga oid materiallarning veb-saytini yaratish ham foydali bo'lardi.
- Boburiylar diplomatiyasida O'rta Osiyoning tutgan o'rniga bag'ishlangan maxsus kurslar, ma'ruzalar tashkil etish O'zbekiston-Hindiston hamkorlik aloqalari tarixiy tajribasini o'rganishda muhimdir.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

### 1. Rahbariy adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. –T.: Sharq; 1998. -32 bet.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. –T.: Ma'naviyat; 2008. - 176 bet.
3. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. –T.: O'zbekiston; 2011. -440 bet.
4. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. –T.: O'zbekiston; 2018. -592 bet.
5. Mirziyoyev Sh.M. Birlashgan millatlar tashkilotining 72-sessiyasida so'zlagan nutqi (2017 yil 19 sentabr)// xalq so'zi: 2017 yil 22 sentabr.

### 2. Adabiyotlar:

6. Qudratilloyev H. Boburning davlatchilik siyosati va diplomatiyasi. –T.: Sharq; 2011. -431.
7. Qudratilloyev H. Hindistonda Boburiylar sulolasi saltanati. –T.: O'qituvchi; 1996. -134 bet.
8. Sotimov G'. Markaziy Osiyo va Hindiston tarixida boburiylar davri. –T.: 2008. -296 bet.
9. Nizomiddinov N.F. Buyuk Boburiylar tarixi. –T.: “Fan va texnologiya”; 2012. -516 bet.
10. Erskin Uilliam. Bobur Hindistonda. –T. Fan; 1995. -111 bet.
11. Hasanov H. O'rta Osiyolik geograf va sayyohlar. –T.: O'zbekiston; 1964. - 252 bet.
12. Hasanov H. Zahiriddin Muhammad Bobur – sayyoh va olim. –T.: O'zbekiston. 1960. -147 bet.
13. Hasanov H. Bobur joylari (Afg'onistondan xat) // Sharq yulduzi. 1963. № 5. –B. 150-155.
14. Nizomiddinov I. O'rta Osiyoning chet el Sharqi bilan munosabatlari. –T.: O'zbekiston; 1961. -181 bet.



15. Nizomiddinov I. XVI-XVIII asrlarda O'rta Osiyo va Hindiston munosabatlari. –T: Fan; 1966. -167 bet.
16. Азимжонова С. Государство Бабур в Кабуле и в Индии. –М.: Наука. 1977. -317 стр.
17. Антонова К.А. Очерки общественных отношений и политического строя могольской империи Акбара (1556-1605 гг.) – М.: Изд. АН СССР. 1952. -191 стр.
18. Синха Н. К., Банерджи А. Г., История Индии, М., 1954.
19. Pirimqul Qodirov. Yulduzli tunlar. (Tarixiy roman) –T.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti; 1980. -440 bet.
20. Pirimqul Qodirov. Avlodlar dovoni (Akbar). Tarixiy roman. –T.: Adabiyot va san'at nashriyoti; 1989. -544 bet.
21. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. Nashrga tayyorlovchi Porso Shamsiyev. –T.: Yulduzcha; 1990. -368 bet.
22. Ro'ziyev E. Hindistonda Shershoh davlati. –T.: Fan; 1992. -48 bet.
23. Xayriddin Sulton. Boburiynoma. –T.: Sharq; 1997. -413 bet.
24. Jalilov S. Bobur va Yuliy Sezar. –T.: Sharq; 2001. -196 bet.
25. Jalilov S. Bobur haqida o'ylar. –T.: Sharq; 2006. -112 bet.
26. Temur tuzuklari. (Mas'ul muharrir Ashraf Ahmedov). –T.: O'zbekiston; 2014. -181 bet.
27. Кол. авт. Материалы по истории Средней и Центральной Азии. –Т.: 1988. -421 стр.
28. Бартольд В.В. Улугбек и его время. Сочинения. Том 2. –М.: 1964. –С. 48-138.
29. Berdimurodov A. Go'ri Amir maqbarasi. –T.: 1996. –110 bet.
30. Vamberi Herman. Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi. Kitobdan parchalar (to'plovchi S.Ahmad). -T.: Adabiyot va san'at nashriyoti; 1990. –111 bet.
31. Ozod Mo'min. Amir Temurning yoquti. // Sharq yulduzi. 1991. № 10. –В. 142-146.

32. Amir Temur va Ulug'bek zamondoshlari xotirasida (O'zRFA akademigi B. Ahmedov tahriri ostida). –T.: O'qituvchi; 1996. –311 bet.
33. Hayitov Sh.A. O'zbekistonning xalqaro munosabatlar tarixidan (qadimgi zamonlardan XX asrning 90-yillariga qadar). –Buxoro.: “Buxoro” nashriyoti; 1996. –102 bet.
34. Hayitov Sh.A. Buyuk Ipak yo'li (o'quv-uslubiy qo'llanma). –Buxoro.: 2007. –55 bet.
35. Sulaymonova F. Boburiylar Hindistonda // “Saodat”; 1992, № 8. –B. 9-11.
36. Saidov A. Buyuk Sohibqiron siymosi // O'zbekiston adabiyoti va san'ati. 2014 yil 4 aprel.
37. Нуритдинов.М Бобурийлар сулоласи., Т., "Фан", 1994.Б.3
38. Ҳошимов.И.Хиндистонда бобурийлар сулоласи салтанати., " Т., "ЎҚТУВЧИ", 19.Б.
39. Гулбаданбегим. Ҳумоюннома, Т., 1959. Б.27
40. Низомиддинов И.Ғ - XVI-XVIII асрларда Ўрта Осиё - Ҳиндистон муносабатлари., Т., "Фан", 1966
41. Шарма Р. Бобурийлар салтанати (Инглиз тилидан Ғ.Сотимов тарж.). -Т., 1999.
42. Уринбоев А., Абдураззоқ Самарқандийнинг Ҳиндистон сафарномаси, Тошкент, УзССР ФА нашриёти, 1960, Б.22
43. Hayitov Sh., Rahmonov K., Orziyev M. Zahiriddin Muhammad Boburning Hindistondagi avlodlari // Pedagogik mahorat. 2011. № 4. –B. 51-56.
44. Мухтаров А. Таджикские и другие надписи в скалах и камнях в верховьях Зарафшана и их научное значение. (Материалы первой Всесоюзной научной конференции востоковедов в г. Ташкенте 4-11 июня 1957 г.) – Из.во Ан. УзССР. Ташкент, 1958. –С. 668-674.

### 3. Tarixiy manbalar:

45. Temur tuzuklari. –T.: “O'zbekiston” NMIU; 2011, 2013, 2014. -181 bet.
46. Nizomiddin Shomiy. Zafarnoma. –T.: O'zbekiston; 1992. -368 bet.

#### **4. Xorijda chop etilgan adabiyotlar:**

47. Burke S.M. Akbar. The Greatest Moghul. New Delhi. 1989.
48. Day U.N. The Moghul government (1556-1707). New Delhi. 1994.
49. Muni Lal. Humayun. New Delhi. 1978.
50. Tripathy R.P. Some aspects of Muslim administration. Allahabad. 1989.
51. Tripathy R.P. Rise and fall of the Mughal Empire. Allahabad. 1991.
52. Richards John F. The Moghul Empire In The New Cambridge history of Jnda. Cambridge. 1993.
53. Prasad Saksena. History of Shahjahan of Dehli. Allahabad, 1958.

#### **5. Internet saytlari:**

54. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
55. [www.norma.uz](http://www.norma.uz)
56. [www.scopus.com](http://www.scopus.com)
57. [www.journals.uchicago.edu/toc/jbs/current](http://www.journals.uchicago.edu/toc/jbs/current)
58. [www.journals.sagepub.com/home/sss](http://www.journals.sagepub.com/home/sss)
59. <https://www.cambridge.org/core/journals/historical-journal>
60. [www.bbc.com](http://www.bbc.com)
61. [www.journalofinfection.com](http://www.journalofinfection.com)
62. [www.sciencecentrum.pl](http://www.sciencecentrum.pl)

## ILOVA

*Bobur dilbar shaxs; Uyg'onish davrining bir hukmdori, mard va tadbirkor shaxs bo'lgan. U san'atni, adabiyotni sevgan, hayot nafosatidan lazzatlana bilgan. Uning nabirasi Akbar yana ham dilbarroq va ko'p yaxshi fazilatlarga ega bo'lgan. Boburning Hindistonga kelishi tufayli Hindistonda buyuk o'zgarishlar sodir bo'ldi; san'atda, hayotda, me'morchilikda va madaniyatning boshqa sohalarida yangicha serilhom taraqqiyot yuz berdi.*

*Javoharlal Neru.*



